2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 170 (959), 2023-yil 24-avgust, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

MUSTAHKAM HAMKORLIK VA ABADIY DO‘STLIK MUNOSABATLARI XALQLARIMIZNI YANADA YAQINLASHTIRADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 22-23-avgust kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari Ozarbayjonga davlat tashrifining ikkinchi kuni rafiqasi bilan birga Fuzuliy shahriga keldi.

Oliy martabali mehmonlarni Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev va rafiqasi kutib oldi.

Shahar buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Muhammad Fuzuliy sharafiga nomlangan. O‘tgan asrning to‘qsoninchi yillarigacha Fuzuliy tumanida sanoat va qishloq xo‘jaligi rivojlangan. Bu yerda kutubxonalar, madaniyat uylari, muzeylar, teatrlar, bog‘lar va boshqa madaniy obyektlar faoliyat yuritgan.

O‘tgan qariyb 30 yilda Fuzuliy butkul vayron bo‘lib, “arvoh shahar”ga aylangan edi. Harbiy harakatlarga qadar bu yerda 18 ming nafarga yaqin aholi istiqomat qilgan.

2020-yilda qayta tiklash ishlari boshlangach, shaharga asta-sekin hayot qaytmoqda. Uy-joylar qurilib, ijtimoiy va transport infratuzilmasi bunyod etilmoqda.

Ushbu muhim va og‘ir pallada O‘zbekiston Ozarbayjon bilan birga. Zero, xalqlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarning ildizlari uzoq o‘tmishga ega. Bizlarni bir din, til va an’analar, ma’naviy qadriyatlar va madaniyat mushtarakligi birlashtirib turadi.

Mustahkam do‘stlik va birodarlik ifodasi sifatida mamlakatimiz yetakchisi 2021-yil 31-mart kuni bo‘lib o‘tgan Turkiy kengashning norasmiy sammitida O‘zbekiston Qorabog‘ zaminidagi yodgorliklar, madaniyat va ma’rifat maskanlarini qayta tiklashga o‘z hissasini qo‘shishga tayyor ekanini ta’kidlagan edi.

Fuzuliy shahrida 960 nafar o‘quvchiga mo‘ljallangan zamonaviy maktab qurilishi Prezidentimiz tashabbusining amaliy ifodasi bo‘ldi.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi 1-sonli maktabda 40 ta sinfxona, 6 ta laboratoriya, 2 ta informatika xonasi, 5 ta funksional o‘quv xonasi, majlislar va sport zallari, oshxona, kutubxona mavjud. Futbol maydoni, dam olish va tadbirlar o‘tkazish uchun joylar tashkil qilingan.

Yangi maktab xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish, o‘sib kelayotgan ozarbayjonlik o‘g‘il-qizlarni O‘zbekistonning boy tarixi va madaniyatiga, buyuk ajdodlarimizning merosiga oshno qilishga xizmat qiladi.

Ikki mamlakat yetakchilari rafiqalari bilan birga ramziy tasmani kesib, maktabni tantanali ravishda ochdilar.

Prezidentlar o‘quv binolari va maktab hududi bilan tanishib, o‘quvchilar bilan samimiy suhbatlashdilar, ularga o‘qishda muvaffaqiyat tiladilar.

So‘ng davlat rahbarlari Fuzuliy shahrida barpo etilayotgan uy-joy majmuasiga tashrif buyurdilar. Prezidentlar majmuadagi xonadon egalari bilan uchrashdilar. Davlatimiz rahbari ularni yangi uyli bo‘lgani bilan tabrikladi.

Samimiy suhbat chog‘ida O‘zbekiston va Ozarbayjon xalqlarining mustahkam do‘stligi va qardoshlik aloqalari haqida so‘z bordi.

Mamlakatimiz yetakchisi Fuzuliyda hayot barqaror holatga qaytayotganidan mamnunligini bildirdi. Prezident Ilhom Aliyev rahbarligida Qorabog‘ni qayta tiklash va rivojlantirish, aholining farovon turmushi uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarini yuksak baholadi. Ozarbayjon xalqiga tinchlik, osoyishtalik va ravnaq tiladi.

Davlat rahbarlari yangi xonadonlarni kirib ko‘rdilar. So‘ng yetakchilar balandlikdan turib vayronagarchilik oqibatlarini va qurilish jarayonini kuzatdilar. Prezidentimizga Fuzuliy shahrini qayta tiklash rejalari haqida ma’lumot berildi.

Kunning ikkinchi yarmida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va rafiqasi Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev va rafiqasi hamrohligida Shusha shahrining diqqatga sazovor joylari bilan tanishdilar.

Shusha “Qorabog‘ durdonasi”, “Kavkaz san’ati markazi” va “Ozarbayjon musiqasi beshigi” nomlari bilan ma’lum. Shahar bir qator taniqli fan, madaniyat va san’at arboblari vatanidir.

2021-yildan buyon Shusha Ozarbayjonning madaniy poytaxti hisoblanadi, 2023-yilda esa turkiy dunyo madaniy poytaxti deb e’lon qilingan.

Joriy yilda Xiva shahri va Shusha shahri o‘rtasida birodarlik aloqalari o‘rnatildi.

Oliy martabali mehmonlar shahar bilan tanishuvni 1883-yilda barpo etilgan Soatli masjididan boshladilar.

So‘ng Ozarbayjon umummilliy yetakchisining yuz yillik yubileyiga bag‘ishlab o‘tkazilgan “Haydar Aliyev va Qorabog‘” fotoko‘rgazmasi bilan tanishildi.

Shushaning bosh maydoniga tashrif buyurildi. Bu yerda Ozarbayjon madaniyatining atoqli arboblari — Xurshidabonu Notavon, Bulbul, Uzeyir Xojibeyli byustlari o‘rnatilgan.

O‘zbekiston tomoni katta qiziqish bilan shahar aholisini ichimlik suv bilan ta’minlab kelgan “Xon qizi” bulog‘i, Ozarbayjonning taniqli san’at arbobi Bulbulning uy-muzeyi, “Mehmondorovlar uyi” me’moriy yodgorligi hamda o‘tmishda otchoparlar o‘rtasida musobaqalar o‘tkazilgan mashhur Jidir tekisligi bilan tanishdilar.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi yakunlandi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

TARAQQIYOT MEZONLARI

HAR BIR TADBIRKOR *eksportchiga* AYLANA OLADI

Buning uchun nima qilish kerak?

Tadbirkorning asosiy maqsadlaridan biri — xorij bozorlariga chiqish. Ya’ni mahsulotini mahalliy bozordan tashqari chet elga ham sotish orqali ko‘proq daromad olishni ko‘zlaydi. Aslida, shunday bo‘lishi ham kerak. Chunki bu orqali nafaqat tadbirkorning o‘zi, balki mamlakat iqtisodiyoti manfaat ko‘radi.

Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq muloqotida ham ayni masala kun tartibiga qo‘yildi. Biznes vakillarining xalqaro maydonda o‘z o‘rnini egallashi, o‘zbek brendi ostidagi mahsulotlar chet el bozorlariga faol kirib borishini ta’minlash uchun qator ishlar amalga oshirilayotgani ta’kidlandi. Muammolar tahlil qilinib, aniq tashabbuslar ilgari surildi.

O‘zbekiston Eksportchilar uyushmasi raisi Yorqin MALIKOV bilan soha vakillarini qiynab kelayotgan masalalar, ushbu yo‘nalishda yo‘llangan murojaatlar hamda ularning yechimlari bo‘yicha ilgari surilgan tashabbuslar, mamlakatimizning eksport imkoniyatlari haqida suhbatlashdik.

Davomi 4-betda

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN!

32 YOSHLILAR ZAKOSI

U ozod va shiddatli, erkin va g‘olibkor

Yozmish degan tushuncha bor. U peshona, ko‘rgilik, taqdir va kechmish hayot nasibasi bilan bog‘liq. Ota-bobolarimiz yozmishi mustamlaka davriga to‘g‘ri keldi. Ular o‘z Vatani hurligini sog‘inib yashadi. Yurt ozodligini ko‘pi ko‘rdi, ko‘pi ko‘rmadi.
Mustaqillik yillarida tug‘ilganlar yozmishi butkul boshqa edi. Ularning oldi — hurriyatga erishgan yilimiz tug‘ilgan yigit-qizlar bugun 32 yoshga kirdi. Ular o‘z yurti yaqin-yaqingacha mustamlaka bo‘lganini ulg‘ayib, kitoblarda o‘qib, kattalarning hikoyalaridan eshitib bildi.

Davomi 3-betda

VATAN TAYANCHI

JANGOVAR RUH VA HARBIY SALOHIYAT

2

NUQTAYI NAZAR

RVA TIZIMI

ta’lim muammolariga yechim bo‘ladimi?

5

MULOHAZA

“Beozor” jumla mashaqqati

6

INSON QADRI UCHUN

QALBI DARYODEK JO‘SHQIN, UMMON KABI KENG

Olmazorlik O‘rozgul

Amudaryo tumani markazi Mang‘it shahrining Olmazor mahallasida o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, turkman va boshqa millatlarga mansub salkam uch yarim mingga yaqin aholi bir-biriga el, qon-qarindosh, ahillikda yashab keladi. Obod, osoyishta va so‘lim go‘shaga aylanayotgan ushbu mahalla fayziga fayz qo‘shayotgan 1600 dan ziyod xotin-qiz o‘z oilasida, mahallada munosib hurmat-e’tibor qozongan. Ularning qalbi daryo kabi jo‘shqin, ummon kabi keng.

> **U MAKTABDAN QAYTGACH, NON YOPADI, SIGIR SOG‘ADI, TOMORQASIDAGI ISHLAR BILAN SHUG‘ULLANADI. TURMUSH O‘RTOG‘I BILAN BIRGALIKDA BARPO QILGAN MO‘JAZGINA BOG‘IDAGI SARXIL MEVALARNI TERIB, QISHGA OZUQA G‘AMLAYDI. XULLAS, TINIB-TINCHIMAS ODDIY QISHLOQ AYOLINING HAR BIR KUNI SHUNDAY O‘TMOQDA. U O‘ZINI DUNYODAGI ENG BAXTLI INSON DEB BILADI.**

Mahalla xotin-qizlar faoli O‘rozgul Yoqubova ushbu lavozimda faoliyat boshlaganiga endi bir yildan oshdi. Ishni aholi tarkibini, xotin-qizlarning ijtimoiy ahvolini o‘rganishdan boshlagan O‘rozgulning yon daftarida birinchi ish kunidayoq “muammolar” degan sahifa paydo bo‘ldi.

— Biz uyma-uy yurib, har bir ehtiyojmand xotin-qizning turmush sharoiti bilan yaqindan tanishdik. Ular hayotiga oid muammoli holatlar beshta toifa asosida o‘rganilib, har bir toifa bo‘yicha xatlov o‘tkazildi va ehtiyojmand ayollar ro‘yxati shakllantirildi, — deydi O‘rozgul. — Shart-sharoit va imkoniyatga ko‘ra “Ayollar daftari”ning 1-toifasiga mansub olti nafar ishsiz xotin-qiz tadbirkorlik markazida tikuvchilik yo‘nalishi bo‘yicha kasb-hunarga o‘rgatildi va ular o‘zini o‘zi band qilish tamoyili asosida ish bilan ta’minlandi. Shuningdek, 2 nafar xotin-qiz doimiy ishga, yana 2 nafari esa bandlikka ko‘maklashish markazi tomonidan mavsumiy ishga jalb qilindi.

“Ayollar daftari”ning 2-toifasidagi Gavhar Gulmanovaga hokim yordamchisi bilan hamkorlikda 33 milllion so‘m imtiyozli kredit olishiga ko‘maklashildi va u qisqa fursatda o‘z tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Ushbu mahalladagi Saodat Yoqubova esa xonadonida “Miss pishiriqlari” korxonasi faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Hokim yordamchisi unga ham tadbirkorlik uchun 33 million so‘m imtiyozli kredit olishiga yordam berdi.

— Biz deyarli har kuni ish vaqtimizni xotin-qizlar orasida, ularning muammolariga yechim topish bilan o‘tkazamiz. Mahallada boquvchisini yo‘qotgan Dilorom To‘rayeva ismli onaxon istiqomat qiladi. Farzandlari, ro‘zg‘orning og‘ir tashvishidan ortmagan onaxonning birdan-bir orzusi — muqaddas Ka’ba ziyoratida bo‘lish edi. Prezidentimiz tashabbusi bilan “Ayollar daftari” ro‘yxatidagi Dilorom opaga joriy yil Ramazon oyida umra safariga bepul borib kelish imkoniyati yaratildi. Bundan opaning boshi osmonda, — deydi O‘rozgul Yoqubova. — Shuningdek, 12 nafar xotin-qizga “Ayollar daftari” jamg‘armasi hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt barobari miqdorida bir martalik moddiy yordam ko‘rsatildi. Daftarning 4-toifasiga kiritilgan 16 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo‘lgan xotin-qiz, shuningdek, nogironligi bor farzandlari bo‘lgan ayollarga zarur tibbiy yordam ko‘rsatilib, ularni sog‘lomlashtirish choralari ham ko‘rildi.

Har bir insonning o‘z uyi, qo‘rg‘oni bo‘lsin, deb bejiz aytishmagan. O‘z uyida saranjom-sarishta, xotirjam yashashga ne yetsin! “Ayollar daftari”ning 5-toifasi ro‘yxatiga kiritilgan uy-joyga ehtiyojmand 2 ta yosh oila uchun subsidiya ajratish va uy-joy bilan ta’minlashga ko‘maklashish ham O‘rozgul Yoqubovaning doimiy nazoratida.

Shuningdek, qaramog‘ida nogiron farzandi bo‘lgan ikki nafar ayol monomarkaz tomonidan tadbirkorlik yo‘nalishi bo‘yicha bepul o‘qitilib, sertifikat berildi va o‘z uylarida tadbirkorlikni boshlashi uchun sharoit yaratildi. Bunday ko‘mak, qo‘llab-quvvatlash ularning oilasiga ham moddiy, ruhiy madad bo‘la oldi, deb bemalol aytish mumkin.

Ayni paytda ulardan biri Shahloxon Esonova o‘z xonadonida tikuvchilik sexi ochib, mahallaning yosh qizlariga chevarlik sirlarini o‘rgatmoqda. Ikkinchisi Zevarjon Sobirova esa 15 million so‘m imtiyozli kredit olib, xonadonida chorvachilikni yo‘lga qo‘ydi va oilasi daromadiga daromad qo‘shmoqda.

Mahallada 15 nafar ibratli oila bekalarini birlashtirgan “Oqila ayollar” harakati yo‘lga qo‘yilgan. Harakat a’zolarining 19 nafar ko‘cha boshilar bilan hamkorlikdagi faoliyati havas va e’tirofga loyiq. Chunki aynan ana shu hamkorlikdagi sa’y-harakatlar tufayli o‘tgan ikki yilda mahallada oilaviy ajrashishlar kuzatilmadi. Nizoli, notinch oilalarda mahalla xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, “Oqila ayollar” jamoatchilik tuzilmasi va ko‘cha boshilarning o‘zaro hamkorlikdagi ishlari tufayli sog‘lom ma’naviy muhit qaror topishiga erishildi. Natijada bironta ham xotin-qiz profilaktik hisobga kiritilmadi.

— Haftaning har payshanbasida o‘tkaziladigan “Odam savdosi — asr muammosi”, “Biz zo‘ravonlikka qarshimiz”, “Huquq va majburiyatlaringizni bilasizmi?” kabi huquqiy-ma’rifiy tadbirlar, oshkora va samimiy muloqotlar tufayli mahalla xotin-qizlarining ijtimoiy faolligi oshmoqda, — deydi O‘rozgul Yoqubova. — Mahallamiz hududidagi ta’lim-tarbiya muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshirayotgan ishlarimizda boy hayotiy tajribaga ega nuroniy onaxonlarni o‘z safiga birlashtirgan “Bibixonim maktabi” jamoatchilik tuzilmasi juda asqotmoqda. Yilning har choragida mahallamizdagi 82-umumta’lim maktabning yuqori sinf o‘quvchilari ishtirokida yosh qizlarni turmushga, oilaviy hayotga tayyorlashga bag‘ishlangan “Erta turmushning salbiy oqibatlari”, “Oilada qiz bolaning o‘rni”, “Qiz bola — bo‘lg‘usi ona” mavzularida tadbirlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, oilalarda kitobxonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan “Men sevgan badiiy qahramon”, “Kitob — hayot charog‘boni, umr ziynati” kabi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘sib kelayotgan yosh qizlar — bo‘lg‘usi onalar va oilalarning go‘zal va sarishta bekalarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etyapti.

Bugungi qishloq ayoli boshqacha

Qishloq ayoli haqida gap ketganda, avvalo, qo‘llari qadoq, quyoshda yuzlari qoraygan, ertayu kech dala ishlari bilan band bo‘lgan mehnatkash va soddadil xotin-qizlar ko‘z o‘ngimizda gavdalanar edi. Lekin bugun keng dunyoqarash, bilim va salohiyatga ega qishloq ayollari jamiyatning faol qatlamiga aylanib, o‘zining shaxsiy pozitsiyasini ko‘rsatmoqda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etmoqda.

Amudaryo tumanining Qilichboy ovulida yashovchi Muqaddas Allaberganova ana shunday ayollardan. U 1995-yili Nukus davlat pedagogika institutining filologiya fakultetini tugatib, Feruz Kamolov bilan oila qurdi.

Erta tongdan to shomgacha tinim bilmaydigan Muqaddas opa 83-umumta’lim maktabida ona tili va adabiyotdan dars beradi. Hozir ta’til vaqti bo‘lsa ham, o‘z o‘quvchilari bilan mushoira kechalari tashkil etib, shogirdlarining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun ko‘maklashishga vaqt va imkon topa oladi.

Ziyoli, mehnatkash bu muallimaning mo‘jazgina qo‘g‘irchoq teatri tashkil qilganiga nima deysiz?! Uning o‘z qo‘llari bilan yasagan qo‘g‘irchoqlari yordamida iqtidorli o‘quvchilari sahna ko‘rinishlari tayyorlab, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, oromgohlarda bolalarga namoyish etmoqda.

Bu hali hammasi emas. Muqaddas opa yoshligidan turli narsalar to‘qish bilan shug‘ullanib kelgan. Bugun ko‘plab shogirdlar yetishtirib, ularga ham to‘qish sirlarini o‘rgatmoqda. Bu oddiy qishloq ayoli kitob o‘qishdan, o‘z bilimi va tajribasini oshirishdan ham aslo charchamaydi. Muqaddas opaning shaxsiy kutubxonasida 2000 dan ziyod turli badiiy va ilmiy kitoblar bor.

U maktabdan qaytgach, non yopadi, sigir sog‘adi, tomorqasidagi ishlar bilan shug‘ullanadi. Turmush o‘rtog‘i bilan birgalikda barpo qilgan mo‘jazgina bog‘idagi sarxil mevalarni terib, qishga ozuqa g‘amlaydi. Xullas, tinib-tinchimas oddiy qishloq ayolining har bir kuni shunday o‘tmoqda. U o‘zini dunyodagi eng baxtli inson deb biladi.

Darhaqiqat, Muqaddas opa singari ko‘plab qishloq ayollari hayot tashvishlariga o‘ralashib qolmasdan, yurt rivoji va xalq farovonligi yo‘lida mehnat qilmoqda. Ularning ko‘ngli qishloq kengliklari kabi keng. Qishloqda shahardagi kabi sharoitlar bo‘lmasa-da, ular aslo nolimaydi. O‘tayotgan har bir daqiqasidan unumli foydalanib, boshqalarga o‘rnak bo‘lmoqda.

Umr mazmuni

Albatta, har kimning umr yo‘li, taqdiri o‘zgacha kechadi. Muhimi, bu yo‘llarni shunchaki yashab o‘tish emas, unga mazmun kirita olishdadir. Bu mazmun esa uning mehnati, ezgu amallari, maqsad sari intilishlari hosilasida yuzaga keladi.

Amudaryolik Fotima opa Davletova ham ana shunday tanlovlarda umrining yangi sahifasini ocha olganlardan. U o‘zi tanlagan yo‘l orqali nafaqat hayotini yaxshilay oldi, balki o‘zbek xalq amaliy san’atini ham boshqalarga o‘rgatmoqda. Fotima opa yoshligidan qo‘g‘irchoqlar yasab-tikishga, zardo‘zlik bilan shug‘ullanishga qiziqar edi. Uning bu qiziqishlari oldin shunchaki bo‘sh vaqtini bekor o‘tkazmaslikka xizmat qilgan bo‘lsa, bugungi kunda uni mashhur hunarmand ayolga, barchaga taniqli tadbirkorga aylantirdi.

Hunarmand ayol nafaqada bo‘lishiga qaramasdan, aslo tinim bilmaydi. Erta-yu kech dala ishlari bilan band bo‘lsa ham o‘zining sevimli hunari bilan shug‘ullanishga albatta vaqt topishini mamnuniyat bilan ta’kidlaydi.

— Men uzoq yillar maktabgacha ta’lim tashkilotida oshpaz bo‘lib ishlab, nafaqaga chiqdim. Shundan so‘ng kelin olib, uy yumushlarini unga topshirib, o‘zim “Hunarmand” uyushmasiga a’zo bo‘ldim, — deydi Fotima opa. — Uyushmada o‘zim singari ko‘plab hunarmandlar bilan tanishib, ular bilan do‘st tutindim. O‘zaro tajriba almashib, dunyoqarashim kengaydi.

Buyuk shoirimiz “Hunarni asrabon netgumdir oxir...” deya bejiz aytmagan. Shuning ifodasi o‘laroq Fotima opa Davletova o‘z hunari sir-asrorlarini boshqalarga ham o‘rgatib, shogirdlar yetishtirib kelmoqda. Bugungi kunda uning 12 nafar shogirdi xuddi o‘zi singari xalq amaliy san’ati sirlarini puxta egallab, ustozi bilan ko‘rik-tanlovlarda faol qatnashmoqda.

— Hozirgi paytda biz yaratayotgan o‘ziga xos milliy naqsh va ranglar bilan jilolangan mahsulotlarimiz nafaqat yurtdoshlarimizda, balki xorijlik mehmonlarda ham qiziqish va hayrat uyg‘otishidan quvonamiz, — deydi hunarmand opa. — Bu esa yanada izlanishga, yangiliklar yaratishga undaydi.

Hunarmand ayol bir vaqtning o‘zida ko‘chaboshi, “Buvijonlar maktabi” a’zosi. U she’rlar ham yozib turadi. Yozganlari hali kitob holida chiqmagan bo‘lsa-da, mahalladoshlari orasida juda mashhur.

Biz yuqorida hikoya qilgan oddiy va samimiy qishloq ayollari oramizda, safimizda. Ular el-yurt manfaati yo‘lida halol mehnat qilayotganidan, kimlarningdir koriga yarayotganidan xursand. Bu mamnunlikni esa ularning fidoyi mehnati va ezgu niyatlari yaratmoqda.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

VATAN TAYANCHI

JANGOVAR RUH VA HARBIY SALOHIYAT

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi loyihasida jahonda sodir bo‘layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarimiz qudrati, mamlakatimiz mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirishga alohida urg‘u berilgan.

Bu bejiz emas, albatta. Chunki dunyoda kechayotgan global jarayonlar ogohlik va hushyorlikni yanada oshirishni, tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash yo‘lida sobitqadam bo‘lishni taqozo etmoqda. Shu bois, Qurolli Kuchlar raqamli salohiyatini yuksaltirish va axborot xavfsizligini ta’minlash, harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish dolzarb vazifaga aylanayotir.

Bu yo‘nalishdagi ishlarni takomillashtirish maqsadida Toshkent axborot texnologiyalari universiteti maxsus fakulteti bazasida Mudofaa vazirligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti tashkil etildi.

Mazkur institut Mudofaa vazirligining davlat oliy harbiy ta’lim muassasasi bo‘lib, sakkiz yo‘nalish bo‘yicha taktik bo‘g‘indagi ofitser kadrlar tayyorlaydi. Institutda ixtirochilikni rivojlantirish va yangi innovatsion g‘oyalarni tatbiq etish maqsadida oltita zamonaviy o‘quv-laboratoriya faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Bugungi kunda Mudofaa vazirligi rahbariyati tomonidan oliy harbiy ta’lim muassasalari ilmiy salohiyatini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ilmiy tadqiqot va izlanishlar olib borayotgan harbiy xizmatchilar, professor-o‘qituvchilarga sharoit yaratib berilmoqda.

Qo‘shinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, xorijdagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish asosida jangovar shayligi va mahoratini oshirish ham muhim vazifa. Hozir milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta’minlash maqsadlariga bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan harbiy mojarolar xususiyatlarini, qo‘shinlarni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olgan holda e’tibor qaratilgan.

Bu borada eng zarur qurol-aslaha va anjomlar sotib olish, ularni yangi jangovar tizimlar bilan birgalikda qo‘llash va takomillashtirib borish doimo e’tibor markazida bo‘lmoqda. Zero, mudofaa sanoatini tizimli rivojlantirish, uchuvchisiz uchish apparatlari, zirhli avtomashinalar kompleksini takomillashtirishni hayotning o‘zi taqozo etayotir.

Hozirgi kunda bu yo‘nalishda tizimli asosda ishlar davom etyapti. Xususan, mudofaa sanoati samarali faoliyat yuritishi uchun tegishli davlat komissiyasi tashkil etildi. Mudofaa vazirligi huzurida Mudofaa sanoati agentligi faoliyat yurityapti.

Qurolli Kuchlar va kuch tuzilmalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, birgalikdagi harakatlar samaradorligi va muvofiqlashganlik darajasini oshirish hamda yuqori malakali harbiy kadrlar tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish ham muhim vazifa. Ushbu yo‘nalishda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida oliy harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari to‘g‘risida nizom tasdiqlangan. Mazkur hujjat xavfsizlik va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimidagi oliy harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari maqsadi va asosiy vazifalarini, ta’lim jarayonini tashkil etish, shuningdek, ta’lim tizimini boshqarish tartibini belgilaydi.

Ta’lim oluvchilarni mutaxassislik fanlari bo‘yicha chuqurlashtirilgan va kasbga yo‘naltirilgan holda o‘qitish, intellektual jihatdan kamol topishi va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash hamda yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalari faoliyatining maqsadi hisoblanadi.

O‘tgan yili harbiy qismlarda ilk bor “Amir Temur jangovar bayrog‘i uchun” musobaqalari bo‘lib o‘tdi. Qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligini oshirish, harbiy an’analarni yanada mustahkamlash, buyuk ajdodlarimizga munosib mard va jasur, bilimli va jismonan baquvvat Vatan himoyachilarini tarbiyalashda ushbu musobaqalar beqiyos ahamiyatga ega.

Ayni vaqtda o‘zbek askarlari xalqaro maydonlarda o‘tkazilayotgan ko‘plab nufuzli harbiy musobaqalarda ham faxrli o‘rinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, harbiylarimiz xalqaro armiya o‘yinlari, “Kembriya patruli” va boshqa yirik harbiy-sport musobaqalarida bir necha yillardan buyon salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritayotgani barchamizni quvontiradi.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada o‘tgan yili mamlakatimiz bo‘ylab “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harakati tashkil etildi. Barcha umumta’lim maktablarida mazkur harakatning 20 mingdan ziyod o‘quvchi-yoshni qamrab olgan guruhlari tuzilgani farzandlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shayotganini ta’kidlash lozim.

Qurolli Kuchlar akademiyasi isloh qilinib, kelgusida uning harbiy ilm-fan sohasi lokomotiviga aylanishi uchun mustahkam zamin yaratildi. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida ham yangicha yondashuv va o‘quv uslublari joriy etilmoqda.

O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish borasida muhim chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilyapti. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi loyihasida bu jabhadagi ishlarni yanada yangi, yuqori bosqichga ko‘tarish bilan bog‘liq muhim chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Ularni o‘z vaqtida amalga oshirish xalqimiz xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bu yo‘nalishdagi qizg‘in tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ro‘yobga chiqishiga hissa qo‘shish har birimizning burchimizdir. Zero, faqat tinchlik-osoyishtalik orqaligina ko‘zlagan ezgu maqsadlarimizni ro‘yobga chiqarishga, mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga erishamiz.

Qutbiddin BURHONOV,
Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi

www.yuz.uz
yuz.uznews
yuz_official
yuz.uz_news

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN!

32 YOSHLILAR ZAKOSI

U ozod va shiddatli, erkin va g‘olibkor

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, bu yoshlarimizning zakosi ozod va shiddatli, erkin va g‘olibkor bo‘lib ulg‘aydi va yana kamolotga yetmoqda. Ularning dunyoqarashi, Vatanga daxldorlik hissi butkul boshqacha. Mustaqillik tengdoshlari O‘zbekiston degan yurtni faqat o‘ziniki deb biladi. Bu yurtning buguni ham, ertasi ham faqat bizniki ekaniga ishonadi. Tarixdagi mudhish xatolardan xulosa qilib, hayotga zavq bilan qaraydi, umid va ishonch bilan yashaydi.

Quyida mustaqilligimiz bilan tengdosh bo‘lgan ana shunday iste’dodli, vatanparvar yigit-qizlarimiz o‘y-xayollari, orzu-umidlari bilan tanishasiz.

ASOSIY JARROH SIFATIDA 400 GA YAQIN YURAK OPERATSIYASIDA ISHTIROK ETDIM

Erishaman, deb o‘z oldiga qat’iy maqsad qo‘ygan odamning niyati agar harakat qilsa, albatta, amalga oshar ekan. Esimni taniganimdan buyon kasb tanlash borasida menga yagona tanlov bo‘lgan. Shifokor bo‘lishni orzu qilganman. Onam Toshkent pediatriya tibbiyot institutida biologiyadan dars berar edi. Ko‘pincha auditoriyadagi mashg‘ulotlarda men ham o‘tirar, mavzularga quloq solar, oq xalatli talabalarga havasim kelardi. Ehtimol, bu qiziqish o‘sha pallada uyg‘ongandir.

Bobur TO‘RAYEV,
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti klinikasi kardiojarrohi

Negadir “Kim bo‘lsam ekan?” mavzusida gap ochilsa, hech ikkilanmay, “Men yurak doktori bo‘laman, yuragi kasal bolalarni davolayman”, derdim. Tasavvurimda “yurak doktori” shifokorlar ichida eng zo‘ri edi. Bu orzu bora-bora qat’iy maqsadga aylandi.

8-sinfda o‘qiyotgan kezlarimiz maktabimiz kapital ta’mirdan chiqarildi. Shu bahona o‘quv-laboratoriya jihozlari keltirildi. Kimyo va biologiya fanlaridan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaza boshladik. Fanga mehrim, amaliy mashqlarga qiziqishim tufayli ustozlarim meni o‘ziga yordamchi qilib olgandi. Bundan tashqari, biologiya fanidan o‘tkaziladigan olimpiadalarda ham faol edim.

Akademik litseydagi davrim ham o‘qish shiddati bilan kechdi. Futbolni yaxshi ko‘rganim uchun do‘stlarim o‘yinga chaqirib kelar, men vaqtimni qizg‘anib stadionga bormasdim. Institutga kirib olsam, vaqtim bemalol bo‘ladi, istagancha futbol o‘ynayveraman, deb o‘ylardim.

Uch yillik mehnatim besamar ketmadi. Kimyo va biologiya fanlaridan natijam deyarli 100 foiz chiqdi va Toshkent pediatriya tibbiyot institutiga 2-o‘rinda qabul qilindim. Ko‘p o‘tmay bildimki, tibbiyot institutida ta’lim olish juda qiyin va mas’uliyatli ekan.

Institutda bizga Ibn Sino nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori kimyodan dars o‘tgan. O‘sha ustozimizga havas qilib, men ham shu stipendiya egasi bo‘laman, deb harakat boshlaganman. 6-kursga o‘tgach, shu orzumga ham erishdim. To‘g‘ri, bu oson bo‘lmadi. O‘qishdan tashqari tezis va maqolalar yozdim. Xalqaro anjumanlarda faol ishtirok etdim.

Magistraturaga o‘tgach, o‘sha paytdagi “Iste’dod” jamg‘armasi tanlovida g‘olib bo‘lib, o‘qishni Londondagi universitetda davom ettirdim. Britaniyaga ko‘nikishim oson bo‘lmagan. Vatanimni sog‘inaverganman. Hatto 10-15 kun o‘tgach, “Nega keldim, o‘zi yaxshi o‘qib yuruvdim”, deb afsus ham qilganimni hozir kulib eslayman. Musofirlikda vatanparvarlik hissi jo‘shqin bo‘lar ekan. Yurtning har qarich yerini qo‘msar ekansiz. Xonam devoriga katta qilib bayrog‘imizni osib qo‘ygan edim. Ko‘zim tushsa, hovurim bosiladi, deganman.

Universitetning kontrakt to‘lovi juda qimmat, o‘z xohishim bilan istasam ham u yerga borib o‘qiy olmasdim. Davlatimiz menga shu imkoniyatni berdi va kelajak uchun rejalar tuza boshladim. Turli madaniyat, turli fikrlar, intilishlar... Bu dunyoqarashimni o‘zgartirdi.

Universitetimizning Great Ormond Street Hospital degan klinikasi bo‘lardi. Bo‘sh vaqt topdim deguncha, kardiojarrohlik bo‘limiga borardim. Jarayonlarni kuzatar, bilmagan narsalarimni so‘rar, qo‘yingki, professorlar yonida yuraverardim.

2019-yil sentabr oyida universitetni muvaffaqiyatli bitirdim. Vatanimizga qaytgan kunimning ertasigayoq ariza yozib, Toshkent pediatriya instituti klinikasida kardiojarroh sifatida faoliyatimni boshladim. Shu kunga qadar asosiy jarroh sifatida 400 ga yaqin yurak operatsiyasida ishtirok etganman.

Ko‘p o‘tmay, butun dunyoda koronavirus pandemiyasi boshlandi. Bu faoliyatimizga ham ta’sir ko‘rsatmay qolmadi. Rejali operatsiyalarni qoldirishga majbur bo‘ldik. Uyda o‘tirib, bemorlarga, xalqimizga qanday yordam berishim mumkinligi haqida o‘ylardim. “YouTube”da kanal ochib, bemorlar tomonidan beriladigan eng ko‘p savollarga javob tariqasida videolar tayyorlab joylay boshladim. O‘sha paytlari o‘zbek tilida tug‘ma yurak nuqsonli bolalar parvarishi bo‘yicha videokontentlar yo‘q edi hisobi. Karantin yengillashib, odatdagi ish tartibimizga qaytgach ham bu ishni davom ettirdim.

Oxirgi uch yil davomida sohamizdagi asosiy muammo bo‘lib kelayotgan murakkab tug‘ma nuqsonli bolalardagi jarrohlik muolajalari, kichik yoshdagi bolalarda, chaqaloqlarda muolajalarni sekin-asta jamoamiz bilan yo‘lga qo‘ya boshladik. Buning uchun klinikamizda sharoitlar yaratib berildi.

Germaniyaning Myunxen, Yaponiyaning Okayamo shaharlarida bolalar kardiojarrohligi bo‘yicha amaliyot o‘tab keldim. Murakkab operatsiyalarni endi chetga chiqmay ham o‘zimizda amalga oshira boshladik. Uch-to‘rt yil ilgari sharoit yo‘qligi tufayli bemor bolasini bag‘riga bosgancha noiloj eshigimizdan qaytgan ota-onalarni bugun ham o‘ylasam qiynalaman. Sharoiti borlari Hindiston, Janubiy Koreya yoki Rossiyaga borib farzandini operatsiya qildirib keldi. Sharoiti yo‘qlar-chi? Xudoga shukr, bugun bunday operatsiyalar o‘zimizda bemalol amalga oshirila boshladi. Muolajalarni muvaffaqiyatli o‘tkazyapmiz. Buning ortidan chetga chiqayotgan bemorlar soni keskin kamaydi, qolaversa, qo‘shni davlatlar — Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikistondan davolanish uchun bizga kelishyapti.

Talabalik yillarimdan biologiyadan xalqaro fan olimpiadalarida mentor tarjimon sifatida qatnashganman. 2015-yildan boshlab O‘zbekiston jamoasi tarkibida tarjimon sifatida qatnashib kelaman. Bu yil ham BAAda o‘tkazilgan olimpiadada ishtirok etdik. Maktab va litsey o‘quvchilari o‘rtasidagi mazkur bilimlar musobaqasida jamoamiz yildan-yilga quvonarli natija ko‘rsatyapti. Ta’lim tizimidagi bu arzimas mehnatim 2021-yil Xalq ta’limi vazirligi tomonidan yuksak baholanib, “Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandim.

Bolaligimizda ko‘p tengdoshlarim ilmga emas, kasbga yo‘naltirilgan. Bu yaxshi. Ota-onalarimiz kasb-hunar o‘rganib, tezroq oilaga yordami tegsin degan. Biroq taraqqiyotga ilm orqali erishishning o‘z zavqi, mas’uliyati bor. Yoshlarni ilm olishga rag‘batlantirish, ilmiy kadrlar salohiyatini oshirishga e’tibor qaratilgani zamirida katta ma’no bor. Ilmiy potensial shakllansa, O‘zbekiston taraqqiy etgan davlatlar orasida o‘z o‘rnini yanada mustahkamlaydi. Bugungi imiji ko‘tariladi.

Yoshim 32 da. Vatanimiz mustaqil bo‘lgan yili tug‘ilganman. Shundanmi, menda Vatanimiz taraqqiyoti bilan qadam-baqadam yurish, milliy taraqqiyotimizga hissa qo‘shish mas’uliyati bor. O‘z oldimga katta maqsadlarni qo‘yganman. Ulardan biri O‘zbekistonda topish mushkul bo‘lgan bolalar kardiojarrohligi bo‘yicha adabiyotlar yaratish. Hozir ilmiy faoliyatimga yondosh bu darsliklar ustida ham ishlayapman.

O‘ZBEKISTONDAGI ISLOHOTLAR SHABADASI DUBAYDA HAM ESYAPTI

Zafar NORMURODOV,
BAAdagi “Aqua Properties Company” mutaxassisi

Salkam besh yildan buyon Birlashgan Arab Amirliklarida ko‘chmas mulk savdosida faoliyat yuritaman. Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqol bor. Inson qanday muhitda ulg‘aysa, o‘sha muhit uni tarbiyalaydi, kelajagini yaratadi. Bolaligimdan biznes, tadbirkorlik sohasiga qiziqaman. Ota-onam Termiz shahrida tadbirkorlik bilan shug‘ullangan. U paytlar hali bugungiday tadbirkorlarga e’tibor yo‘q, o‘zlari harakat qilib, do‘kon yuritgan. Shuning ortidan bizni o‘qitgan, oyoqqa qo‘ygan.

Bugun vaziyat tamoman boshqa. Prezidentimizning tadbirkorlar bilan an’anaviy ochiq muloqotini kuzatarkanman, yurtimizdagi tadbirkorlarga, xususan, yoshlarga berilayotgan imtiyozlarni eshitib, xursand bo‘ldim. Astoydil mehnat qilgan, yurt ravnaqiga hissa qo‘shgan yoshlarni davlatimiz mukofotlayapti. Bu imkoniyatlar tufayli mamlakatimiz rivojlangan davlatlar bilan raqobatga kirishyapti. Dunyoda yangi O‘zbekiston imiji paydo bo‘ldi.

Bizning vaqtimiz deyarli bozorda o‘tsa ham ota-onamiz ta’lim olishimizni jiddiy nazorat qilgan. Maktabni a’loga bitirdim. Otamning asl kasbi pedagog, biroq salomatligidagi muammo sabab maktabda ishlamay qo‘ygan. Ro‘zg‘or tebratish uchun bozorda ish boshlagan. Uyga kech qaytardik. Ilk ijtimoiy muloqotni ham bozorda o‘rganganmiz.

O‘quvchi edim. Termizga sayyohlar ko‘p kelardi. U paytlar hozirgidek o‘quvchilarning 1-sinfdan boshlab ingliz tilini o‘rganishi qayerda deysiz?! Sayyohlar, asosan, ingliz tilida gapirar, men esa “qaniydi til bilsam-u, mehmonlar bilan suhbatlashsam”, deb orzu qilardim. Hozir o‘ylasam, aslida, chet tilni bilish tijorat sohasida muvaffaqiyatga erishishning bir kaliti ekan. Shu orzu ortidan ergashib, ingliz tilidan qo‘shimcha darslarga qatnadim. So‘ng ta’limni Termiz davlat universitetida xorijiy filologiya fakultetida davom ettirdim.

O‘quvchilik yillarim bozorda stol qo‘yib, pista, qurt kabi mayda-chuydalar sotgan bo‘lsam, talabalik yillarim xorijiy tillarni o‘qitishga asoslangan o‘quv markazi ochdim... Oshxona yuritdim.

Universitetni bitirgach ham biznesda o‘z yo‘limni topish, katta-katta loyihalar qilish ilinjida yurdim. Biroq yo‘l ochilmadi. Yurtimizda endi-endi islohotlar boshlangan paytda xorijga ketdim.

Nasiba ekan, shu yerda tadbirkorlik bilan bandman. O‘zbekistonda ko‘chmas mulk savdosi bilan shug‘ullanmaganman. Biroq savdo-sotiqni tushunishim, bolaligimdagi bosqichma-bosqich daromad qilishga urinishlarim besamar ketmadi.

Qolaversa, bu soha yurtimizda endi rivojlanyapti, firmalar, kompaniyalar faoliyat yurita boshladi. 5-6 yil ilgari bu ish bilan, asosan, maklerlar shug‘ullanardi.

O‘zbekistondagi o‘zgarishlar, islohotlarning shabadasi Dubayda ham esyapti. Nega bunday deyapman? Chunki davlatimizning xorijdagi vatandoshlarga g‘amxo‘rligi va e’tiborini mamlakat tashqarisidagi musofir yurtdoshlarimiz ko‘rib, his qilib turibdi. Istalgan payt vatanga borib-kelamiz. “Vatandoshlar” jamoat fondi bilan doimiy aloqadamiz. Fond har xil viktorinalar, loyihalar qilyapti, g‘oliblarni yurtimizga taklif qilib, sayohatlar tashkil etyapti. Hatto og‘ir ahvolda qolgan yurtdoshlarimizni topib, ma’naviy, psixologik yordam beryapti. Haftada bir kun taniqli imomlar, professor-olimlar, psixologlar bilan videomuloqotlar tashkil qilyapti. Manzil tashlanadi, istagan har bir vatandosh kirib muloqotda ishtirok etishi mumkin.

Aslida, O‘zbekistonda turib xorijdagi fuqarolar holini o‘ylash, yordam berish, ruhlantirish katta islohot. Bizning ortimizda Vatanimiz turibdi, degan ishonch katta motivatsiyadir.

Yangi O‘zbekiston xorijdagi vatandoshlar huquqlarini to‘liq himoyalayapti. Konsullik nima yordam so‘rasak, ko‘mak qo‘lini cho‘zadi, maslahat beradi.

Maqsadlarim ko‘p. Bugun xorijda tajriba orttirgan hamyurtlarimiz Vatanga qaytsa, davlatimiz quchoq ochib kutib olyapti. Men ham o‘z tajribalarim bilan yurtimizga qaytib, shu yo‘nalishda tadbirkorlik faoliyati yuritmoqchiman.

TABIAT KUCHI VA YAQINLAR KO‘MAGI BILAN

Ayol kishining jamiyatda o‘z o‘rnini topishida oilaning, davlatning qo‘llab-quvvatlovi muhim. Sharoit yaratib berilgan muhitda, uning kichkina yutug‘i e’tirof etilgan joyda har bir xotin-qiz muvaffaqiyat qozonishi bor gap.

Barnoxon ORTIQXO‘JAYEVA,
“Shuhrat” medali sohibi

Yetti yil maktab ta’limiga qo‘shimcha musiqa va san’at maktabining fortepiano sinfida ta’lim olganman. Raqs, shaxmat, dizayner... Vaqtimiz taqsimlangan edi. Otam tilshunos, onam shifokor — har ikkisi ilm bilan mashg‘ul, bizni ana shu muhit ulg‘aytirdi.

Ota-onam meni ilm yo‘lida qanday qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa, turmush qurgach ham shu muhitga tushdim. To‘g‘ri, ayollarga hech qachon oson bo‘lmaydi, biroq tabiat ularga kuch ham bergan. Angladimki, ayollar bir necha sferani baravar ushlab turishga harakat qiladi. Oila, o‘qish ish, shaxsiy qiziqishlar... Maqsad aniq bo‘lsa, yoningizda hamrohingiz bo‘lsa, bu hamroh hatto farzandingiz bo‘lishi ham mumkin, maqsadga yetish oson.

Ona tomondan ajdodlarimiz shifokorlar bo‘lib, shu muhit ichida ulg‘aydim. Shifokorlikka qiziqmasam-da, yoshligimdan saraton kasalligiga qarshi dori ishlab chiqaraman, derdim. Yangi dori-darmon ishlab chiqaraman, sohani rivojlantirishga hissa qo‘shaman, deya orzu qilardim.

Yo‘nalishim — biotexnologiya. Toshkent kimyo-texnologiya institutida ta’lim oldim. O‘qishimizda ta’lim amaliyot bilan uyg‘un olib boriladi. Oziq-ovqat texnologiyasi haqida bilimga ega bo‘lishimiz uchun ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan korxonalarda, mahsulotni noldan boshlab tayyorlash jarayonida ishtirok etganmiz. 2-kursga o‘tgach, biotexnologik laboratoriyaga amaliyot o‘tash uchun borganman. Shu qadam hayotimda burilish yasadi.

Mikrobiologiya bugun chindan rivojlanyapti. Kelajakdagi muammolar uchun yechimlar taklif qilyapti. Hukumatimiz tomonidan e’tibor berilyapti. Soha ocharchilik, ichimlik suv va ob-havo muammosining yechimida ham yordam beradi. Biroq ayrim masalalar borki, soha taraqqiyotiga yo‘l bermayotgan edi. Masalan, ba’zi oliy ta’lim muassasalari laboratoriyalarida mashg‘ulotlar uchun sharoit yetarli emas edi. Asta-sekin bu muammolar hal etilyapti.

Talabalik davrida turmush qurdim, o‘g‘limiz tug‘ildi. U sho‘x bo‘lgani bois, ko‘cha-ko‘yda ko‘p yiqilar, tabiiyki, yengil jarohatlar olardi. Shunday paytlarda yoningizda doim ham spirt va paxta bo‘lmaydi. Qolaversa, spirt bilan yaraga ishlov berilsa, achishtiradi. Bola azoblanadi. Shunday universal mahsulot bo‘lsa-yu, shu masala muammosiz hal etilsa, deb o‘ylardim. Bu orzum ham ro‘yobga chiqdi: “LiPach” loyiha shu tarzda amalga oshdi. Jarohatlarning tez bitishi va turli noqulayliklarning oldini olish maqsadida mahsulot ishlab chiqara boshladik. Mahsulotimiz ayollarning tirnog‘iga suriladigan bo‘yoq idishiga o‘xshash idishlarda bo‘lib, olib yurishga juda qulay.

Suyuq plastir qonni darhol to‘xtatib, yarali joyda 2-3 soniya ichida yupqa shaffof parda hosil qiladi. Bu parda yarani himoyalovchi vosita sifatida bir-ikki kun turishi mumkin. Muhimi, mahsulot suv o‘tkazmaydi, hatto ishqalasangiz ham ketmaydi.

Bundan tashqari, loyihamiz ustida qayta izlanishlar olib bordik. Jamoamiz bilan teridagi qadoqqa qarshi qo‘llaniladigan suyuqlik ishlab chiqarishga erishdik. Bilasiz, yangi poyabzal oyoqlarda og‘riqli qadoq hosil qilishi mumkin. Ish yoki ko‘cha-ko‘yda bunday noqulay holda yurish oyoqqa og‘riq beradi. Ishlanmaning tarkibiy tuzilishi shu qadar a’lo darajadaki, uni qadoqqa surganingizdan so‘ng 2 daqiqa ichida oyoq kiyimni kiyib, bemalol ishga kirishib ketish mumkin.

Mahsulotimiz ishlab chiqarila boshlagandan so‘ng turli ko‘rgazmalarda qatnashdik. Bir kompaniya loyihamizga xaridor bo‘ldi. Ular ham shu yo‘nalishda mahsulot ishlab chiqarar ekan, lekin aynan biznikiday ta’siri samarali emas. Investor sifatida bizga mablag‘ tikdi, biroq loyiha hali davom etayotgani uchun biz taklifni vaqtincha rad etdik.

2018-yildan ijtimoiy loyihalarga qiziqib qoldim. Ikkinchi mutaxassislikda sotsiologiya bo‘yicha o‘qiyapman. Xalqaro tashkilotlarning qishloq va suv xo‘jaligi, ekologiya, ta’lim, ilm-fan bo‘yicha loyihalarida muntazam qatnashaman. Ayni paytda Jahon banki loyihasida maslahatchiman. Loyihamiz suv tanqisligi muammosini hal etishga qaratilgan. Farg‘ona vodiysida aholi bilan ishlab, aniqlangan muammolarga yechim taklif qilamiz. Ikki soha vakili sifatida odamlarga ko‘mak ko‘rsata olganimdan hamisha quvonaman.

Yana bir yirik loyihamiz — “Anjir”. Reproduktiv salomatlik, oila va farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan, jinsiy tarbiyaga oid loyiha. Shifokor, psixologlarimiz bor. Anonim tarzda xotin-qizlarga bepul maslahat beramiz. E’tibor bersak, bizda ko‘pincha jinsiy tarbiyaga uyat sifatida qaraladi. Ko‘plab qizlarimiz savollariga kimdan javob olishni bilmaydi. “Anjir” yoshlarning savol va murojaatlarini tinglaydi hamda batafsil javob yo‘llaydi. Bundan tashqari, aholi psixologiyasi, giyohvandlik va tamaki mahsulotlariga qarshi kurashish kabi masalalarga e’tibor qaratamiz.

Bugun xotin-qizlarga qaratilayotgan e’tibordan samarali foydalanish vaqti. Rag‘batlar besamar ketmasligi uchun harakat qilishimiz lozim.

Sahifani “Yangi O‘zbekiston” muxbiri Bashorat YUNUSOVA tayyorladi.

TARAQQIYOT MEZONLARI

HAR BIR TADBIRKOR eksportchiga AYLANA OLADI

Buning uchun nima qilish kerak?

Eksportdagi yana bir masala bizda xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyalarning yo‘qligi. Shu sababli ko‘p turdagi mahsulotlarimiz xorijga chiqa olmayapti. Misol uchun, Koreyaga asal eksport qilmoqchimiz, lekin ularning ro‘yxatidan o‘tgan laboratoriya bizda yo‘qligi uchun, mahsulot sifatini tekshirib, ularning mamlakatiga olib kira olmayapmiz.

Boshlanishi 1-betda

— Jahon tajribasidan ma’lumki, biznes vakillariga qancha ko‘p imkoniyat berilsa, erkin faoliyati uchun sharoitlar yaratilsa, davlat iqtisodiyoti shuncha rivojlanib boradi, — deya fikrini boshladi Yorqin Malikov. — Bu rad etib bo‘lmaydigan haqiqat va oxirgi yillarda yurtimizda ana shunday jarayon kechmoqda. Ya’ni tadbirkorlarni faol qo‘llab-quvvatlashning milliy va xalqaro talablar darajasidagi tizimi yaratildiki, buning natijasida qulay biznes muhiti shakllanganiga guvoh bo‘lyapmiz.

Tadbirkorlar bilan an’anaviy tarzda o‘tkazilayotgan ochiq muloqot ham o‘ziga xos tajriba, jahonda muqobili yo‘q harakatga aylandi. Biznes vakillari murojaatlar orqali yuragida turgan dardlarini davlat rahbariga aytyapti, takliflarini bildirib, yangi tashabbuslarni ilgari suryapti. Bu juda katta imkoniyat. Masalan, o‘tgan yili tadbirkorlar tomonidan 13 mingdan ortiq murojaat yo‘llangan bo‘lsa, bu yil 6 mingta murojaat kelib tushgan. Avvalgi yillarda aksariyat murojaatlar bank, kredit masalalari bilan bog‘liq ekanini kuzatganmiz. Joriy yilda esa tadbirkorlarni ko‘proq soliq tizimidagi muammolar qiynayotgani ko‘zga tashlandi. Davlatimiz rahbari ham shunga katta e’tibor berib, qo‘shilgan qiymat zanjiridagi tartibni soddalashtirib, muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni bildirdi.

Har gal muloqotda ilgari surilgan tashabbuslar jadallik bilan hayotga tatbiq etilayotgani biznes vakillariga katta ko‘mak beryapti. Aynan eksport yo‘nalishi haqida gapiradigan bo‘lsam, muloqotlardan keyin berilgan imtiyozlar natijasida oxirgi ikki yilda korxonalarimiz tomonidan 25 milliard dollarlik mahsulot xorijga chiqarilgan. Joriy yilning ikkinchi choragida esa eksportimiz ko‘lami o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 27 foizga o‘sgani kuzatildi. Birgina bojxona hududida qayta ishlash tizimi soddalashtirilgani natijasida mazkur xizmatdan foydalanuvchi tadbirkorlar soni 2 barobar ko‘paygan. Bir yil ichida ushbu imkoniyat orqali 455 million dollarlik mahsulot eksport qilinib, shu tariqa 110 million dollarlik qo‘shimcha qiymat yaratilgan. Bu keskinlashayotgan geosiyosiy vaziyatlarga qaramay, mahalliy eksportchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash ko‘lami kengayib borayotgani mahsuli.

To‘g‘ri, mahsulotni xorijga eksport qilish oson emas. Ammo avvalgi yillar bilan solishtirganda hozir bu ancha soddalashgan. Asosiysi, nafaqat yirik, balki kichik korxonalar ham buning uddasidan chiqyapti. Raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, o‘tgan yili mamlakatimizda eksport hajmi 19,3 milliard dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, shundan 13 milliard dollardan ortig‘i kichik

va o‘rta biznesda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilgan.

Bu O‘zbekistondan xorij bozorlariga chiqarilayotgan mahsulotlar soni oshib borayotganidan ham dalolat beradi. Shunga mos ravishda mamlakatimizning eksport geografiyasi ham kengaymoqda. Mahsulotlarimiz doimiy bozorlardan tashqari, yangi manzillar, Yevropa davlatlariga chiqyapti. Xalqaro hamkorlikdagi aloqalar, xorij davlatlari bilan do‘stona munosabatlar bunga yo‘l ochmoqda. O‘tgan yili O‘zbekistonning eksport geografiyasi 120 ta davlatni tashkil etgan bo‘lsa, joriy yilda bu raqam 160 dan oshgani buning isboti.

— Eksportchilarga davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar haqida gapirdingiz. Keling, buni amaliy misollar bilan tahlil qilsak. Eksportchi tadbirkor bugun qanchalik davlatga suyana oladi?

— Agar tadbirkorlar eksport yo‘nalishida berilayotgan barcha imtiyozlardan xabardor bo‘lib, ularni faoliyatida qo‘llay olsa, juda katta qulayliklarni ko‘radi. Afsuski, ko‘pincha biznes vakillarining bundan xabari bo‘lmaydi, ish jarayonida ayrimlari qiziqib ham ko‘rmaydi. Shu bois, imtiyozlar faqat gapda, deydiganlar ham topiladi.

Vaholanki, eksportchi tadbirkorlarga yo‘l haqi, transport xarajatlarini subsidiya asosida qoplab berish, ma’lum davlatga eksport qilayotganda guvohnoma, sertifikatlarni olishdagi xarajatlarning katta qismini davlat to‘lab berishi kabi bir qator imkoniyatlar mavjud. Masalan, ipak, oziq-ovqat va boshqa qator mahsulotlar eksport qilinganda davlat tomonidan transport xarajatlari 70 foizgacha qoplab beriladi. Subsidiya beriladigan mahsulotlar ro‘yxati tobora kengayib boryapti. Yaqinda mosh unini ana shu ro‘yxatga kiritish bo‘yicha ham ariza berdik. Boisi, tadbirkorlarimiz shunday mahsulot ishlab chiqaryapti va Koreyadan xaridorlar chiqib, 22 million dollarlik shartnoma imzolandi. Ammo ular yo‘lkira xarajatlari ancha qimmatga tushishini aytishdi. Agar mosh unini ham subsidiya beriladigan mahsulotlar qatoriga kiritsak, eksport qilishda katta mablag‘ tejab qolinadi.

Yana bir masala, Yevropa davlatlariga mahsulot eksport qilinganda, xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyalarga namunalar beriladi. Bu ham katta xarajat talab qiladi. Hozir ushbu xarajatlarning ham bir qismini davlat to‘lab beryapti. Tadbirkor biror chet davlatga borib, ko‘rgazmada ishtirok etadigan bo‘lsa, ko‘rgazma pavilyonlariga to‘lanadigan mablag‘ning bir qismi Eksportni rivojlantirish agentligi tomonidan qoplanyapti. Boshqa davlatlarda qilinadigan reklama xarajatlari uchun ham davlat belgilangan tartibda pul to‘laydi.

Yoki yana bir misol, boshqa davlatda savdo uyi ochish uchun olingan binoning 50 foizi davlat hisobidan qoplanyapti. Hatto savdo uyi uchun olinadigan omborxonaning ham 50 foizini davlat to‘lab beradi. Qarang, eksportchi tadbirkorlar uchun qancha imkoniyat mavjud. Agar buni real summalarda tahlil qilsangiz, biznes vakili tejab qolayotgan xarajatlar ko‘lami yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Bu birgina yo‘nalishdagi imtiyozlar, xolos. Sohaning deyarli har bir tarmog‘ida ishbilarmonlarga shunday imkoniyatlar nazarda tutilgan. Ularni o‘rganib borish, foydalana bilish biznes vakillarining o‘ziga ham bog‘liq. Ya’ni bugungi tadbirkor ko‘proq o‘z ustida ishlab, juda faol bo‘lishi

kerakligini zamon talab qilyapti. Bunga ikki xil nazar bilan qarasak bo‘ladi. Avvalo, hozir raqobat juda kuchli va tadbirkor doim hushyor bo‘lib, boshqalardan ikki qadam oldinda yursagina, yutuqqa erishadi. Boshqa tomondan, hozirgi tadbirkor ish yuritish, biror mahsulotni ishlab chiqarishga ilm bilan yondashishi kerak bo‘lyapti. Ko‘r-ko‘rona ish boshlash bilan oldinga yurolmaydi.

— Bu jarayonda O‘zbekiston Eksportchilar uyushmasining o‘rni va roli qanday? Ya’ni tadbirkorlar uyushma ko‘magini qanchalik sezishmoqda?

— Bugungi kunda uyushmamiz davlat va tadbirkor o‘rtasidagi vositalachilardan biri, desak xato bo‘lmaydi. Faoliyatimizning asosiy yo‘nalishi eksportchi ishbilarmonlarni qo‘llab-quvvatlash, yurtimizda ularga berilayotgan imtiyozlardan foydalanishlarida huquqiy va amaliy jihatdan ko‘maklashish, yangi bozorlarni ochish, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirishga hissa qo‘shishdan iborat. Shu maqsadda uyushma 4 mingdan ortiq mahalliy eksportchini birlashtirib, doimiy muloqotni yo‘lga qo‘ygan. Ularning orasida deyarli barcha tarmoq tadbirkorlari bor.

Tadbirkorlarimiz yetishtirgan, ishlab chiqarayotgan mahsulotlar uchun muqim bozorlar topishga harakat qilyapmiz. Turli davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatganmiz. Muntazam tarzda yangi bozorlar izlaymiz. So‘nggi vaqtlarda arab davlatlariga chiqishni boshladik. Qolaversa, Misr orqali Afrika davlatlariga kirib borishga intilyapmiz. Boisi, Afrika davlatlarida 1 milliarddan oshiq aholi bor, bu juda katta bozor, degani. Ushbu davlatlarda xizmat safarida bo‘lganimizda, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan qurilish mollari, quritilgan meva-sabzavotlar, ipak toladan tayyorlangan mahsulotlarimizga katta qiziqish bildirilayotganini ko‘rib, kuzatdik.

O‘zbekistonda eksportbop tovarlar juda ko‘p. Faqat ularni ko‘proq davlatga namoyish eta olishimiz kerak. Bu borada doimiy tarzda o‘tkazib kelinayotgan xalqaro ko‘rgazma, forumlarning alohida o‘rni bor. Bular birdaniga natija bermasa ham, poydevor qo‘yib boriladi, yangi hamkorliklarga asos bo‘ladi, katta shartnomalarga yo‘l ochadi. Asosiysi, bu tadbirlar tadbirkorlarning o‘z mahsulotini xorijliklarga namoyish etishida katta maydon bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, Eksportchilar uyushmasi tomonidan 2020-yil boshida yurtimiz tarixida birinchi marta o‘tkazilgan O‘zbekiston — Afg‘oniston biznes forumini olaylik. O‘shanda 300-400 turdagi mahsulot ko‘rgazmasini o‘tkazganmiz. Afg‘onlar O‘zbekistonda shunday mahsulotlar ishlab chiqarilyaptimi, deb hayratda qolgan. Bu keyingi yillarda o‘z natijasini bera boshladi. Afg‘onistonga qandolat, makaron, saqich mahsulotlarimizning katta miqdordagi eksporti yo‘lga qo‘yildi. Bundan, albatta, tadbirkorlarimiz manfaat ko‘ryapti.

Xorij davlatlarida O‘zbekistonning savdo uylarini ochish ham yil sayin kengayib boryapti. Hozir Qozog‘iston, Tojikiston, AQSH, Germaniya kabi qator davlatlarda savdo uylarimiz bor. Qirg‘izistonda buning uchun katta bino qurilishi boshlangan. Hatto, tadbirkorlarimizning o‘zlari barcha talablarga rioya qilgan holda, davlatimiz tomonidan berilayotgan subsidiyalardan foydalanib boshqa davlatlarda savdo uylarini ochmoqda. O‘sha yerda o‘z mahsulotlarini sotish orqali, eksport hajmini oshiryapti. Bunda ularga boshqa imtiyozlar ham bor. Ya’ni tadbirkor hujjatlarni rasmiylashtirayotganda mahsuloti savdo uylariga chiqarilayotganini kiritsa, bojxona to‘lovlarini mahsulot sotilgandan keyin to‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Agar mahsulotning muddati o‘tib ketsa, hech qanday to‘lovsiz O‘zbekistonga qaytarishi ham mumkin. Bu ham tadbirkorga ancha qulaylik beradi.

— Eksport borasida muammolar ham hali yetarlicha ekani sir emas. Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq muloqoti oldidan uyushma va uning a’zolari qanday masalalarni o‘rtaga tashladi?

— Eksportchilardan kelib tushgan murojaatlar asosida bir qancha takliflarni tayyorladik. Shulardan eng kattasi soliq bo‘yicha e’tirozlar edi. Guvohi bo‘lganimizdek, davlatimiz rahbari tomonidan bu borada aniq tashabbuslar aytildi. Logistika borasidagi muammolar ham birin-ketin yechilmoqda. Eng maqbul variantlar ko‘rilib, amaliyotga joriy etilyapti.

O‘zbekistonning xorij davlatlaridagi elchixonalarida yurtimizda yetishtirilgan va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning milliy pavilyonini tashkil etish taklifini ham berdik. Ularda mahsulotlarimiz namunalari qo‘yilsa, tadbirkorlarga ancha qulay bo‘ladi. Masalan, hozirgi kunda arab davlatlari qandolat mahsulotlarimizga katta qiziqish bildiryapti. Bir tadbirkorimiz Saudiya Arabistoniga bir necha marotaba o‘z mahsuloti namunalarini jo‘natdi. Ikki kilogramm mahsulotni xalqaro pochta orqali Saudiya Arabistoniga jo‘natish 500-600 dollargacha tushyapti. Tasavvur qiling, o‘nta mijozga 2 kilogrammdan mahsulot jo‘natish qanchaga tushadi? Agar shu mahsulotlar elchixonalarimizda tursa, xorijliklar borib, bemalol namunalar bilan tanisha oladi.

Eksportdagi yana bir masala bizda xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyalarning yo‘qligi. Shu sababli ko‘p turdagi mahsulotlarimiz xorijga chiqa olmayapti. Misol uchun, Koreyaga asal eksport qilmoqchimiz, lekin ularning ro‘yxatidan o‘tgan laboratoriya bizda yo‘qligi uchun, mahsulot sifatini tekshirib, ularning mamlakatiga olib kira olmayapmiz. Buning uchun O‘zbekistonga xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyalarning filiallarini olib kelishimiz kerak. Shunda mahsulotlar xulosalarini olib, ko‘proq davlatga taqdim qila olamiz. Bu xorijdagi laboratoriyalarda mahsulot sifatini tekshirtirishga ketadigan xarajatlarni tejab qolishga ham imkon beradi.

Yana bir masala, O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan mahsulotlar namunasi turadigan joy yo‘q edi. Xorijliklarga mahsulotlarimizni ko‘rsatish uchun turli hududlardagi zavod-fabrikalarga olib borishimizga to‘g‘ri keladi. Bu bir necha kun vaqt va ortiqcha xarajat talab qilardi. Shu bois, davlatimiz rahbarining tegishli farmoni bilan Eksport markazini tashkil etish belgilandi. Kuni kecha, 15-avgust kuni Toshkent shahrida Singapur universiteti bilan hamkorlikda Eksport markazini ochdik. Doimiy ishlaydigan mazkur shourumdan ona diyorimizda yetishtiriladigan va ishlab chiqariladigan mahsulotlar joy oladi. Hozirgacha 200 turdagi mahsulotni joylashtirdik. Ularning oldida ishlab chiqaruvchi haqidagi barcha ma’lumotlar qo‘yilgan. Endi xorijlik importchilarni shu yerga olib kelyapmiz, muzokaralar ham shu yerning o‘zida olib boriladi. Biz u yerda tadbirkorlarga eksport bo‘yicha davlat tomonidan beriladigan yordamlarni aytib, amaliy ko‘maklar ko‘rsatamiz. Bu imkoniyatlar eksport ko‘lamini yanada oshirishga yo‘l ochadi.

Sohani yanada rivojlantirish uchun kadrlar tayyorlash masalasiga ham alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Boisi, ko‘p tadbirkorlarning eksportda uquvi yo‘qligi, ularga aniq amaliy yordam ko‘rsatadigan bo‘limlar mavjud emasligi qiynaydi. Bunday bo‘limlarni tashkil etish uchun esa kadrlar yetishmaydi. Bu bo‘shliqni to‘ldirish uchun uyushmada eksport bo‘yicha o‘quv kurslarni yo‘lga qo‘ydik. Oliy ta’limda ham eksport bo‘yicha darslar ko‘proq amaliyotda o‘tkazilsa, kadrlar zaxirasi tezroq shakllanadi. Kadrlar ko‘paysa, tadbirkorlarga ko‘mak oshib, eksportchilar safi yanada kengayadi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Iroda TOSHMATOVA suhbatlashdi.

Sohani yanada rivojlantirish uchun kadrlar tayyorlash masalasiga ham alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Boisi, ko‘p tadbirkorlarning eksportda uquvi yo‘qligi, ularga aniq amaliy yordam ko‘rsatadigan bo‘limlar mavjud emasligi qiynaydi. Bunday bo‘limlarni tashkil etish uchun esa kadrlar yetishmaydi.

JARAYON

XALAQIT BERUVCHI OMILLAR kamaydi

Bu Navoiy viloyatida ham ishbilarmonlar safi kengayishiga xizmat qilmoqda

Viloyatda joriy yilning o‘tgan davrida qariyb 5 mingta yangi tadbirkorlik subyektlari ish boshladi. Yarim yildan sal ko‘proq vaqt ichida bir hududda shuncha ishbilarmon o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishi, bizningcha, katta ko‘rsatkich. Tadbirkorlik yo‘nalishida ish olib borayotgan biznes vakillari shu paytgacha bir qator to‘siqlar mavjudligi bois, faoliyat yuritishi ancha mushkul bo‘lgan. Birgina loyihani amalga oshirish uchun qancha idoraga borishga, qog‘ozbozlik qilib, ruxsat so‘rashga majbur edi. Bu kabi ovoragarchilikdan charchab, qo‘l siltab, boshlagan ishini tashlab ketganlar ham bo‘ldi. Shunday sansalorlik, turli bahonalar ortidan soha oqsab qolgan.

Albatta, tadbirkorni qo‘llab-quvvatlashga harakat bor edi, lekin ularning erkin faoliyat yuritishlariga xalaqit beruvchi omillar ham kam emasdi. So‘nggi yillarda sohada yangi bosqich boshlandi. Odamlarda ishonch paydo bo‘ldi, ishtiyoq kuchaydi. O‘z ishiga, kasbiga mehri oshdi. Navoiy viloyatidagi yetti oylik ko‘rsatkich ana shu sa’y-harakatlar samarasi, aslida.

Yana bir e’tiborli jihati, viloyatda 2018-yilgacha xorijiy kapital ishtirokida 56 ta korxona mavjud bo‘lgan bo‘lsa, joriy yilga kelib, ular soni 283 taga yetdi.

Xorijiy sarmoyadorlar jalb etilishi tarmoqlarga zamonaviy, tejamkor texnologiyalarni olib kirish barobarida, bozorga yangi mahsulotlar yetkazib berishda ham qo‘l kelmoqda. Masalan, “Zarafshon industry texnology” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan xitoylik hamkorlar bilan qiymati 46 million dollar bo‘lgan kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish majmuasi ishga tushirildi. Mazkur korxonada sulfat kislotasi ishlab chiqariladi. Yillik quvvati 200 ming tonna. Respublikamizda bunday mahsulot ishlab chiqaruvchi ko‘p emas. Shundan ma’lumki, mahsulot omborlarda, rastalarda turib qolmaydi.

Mutaxassislar, ishbilarmonlar har qanday faoliyat rivojida uch omil — tajribali mutaxassis, moddiy-texnik baza va munosib mehnat sharoiti muhimligini ta’kidlashadi. Shu jihatdan olganda, korxona jamoasi bundan xavotirlanmasa ham bo‘ladi. Chunki korxonada ularning barchasi mavjud.

Ayni paytda tadbirkorlik sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida viloyatda qurilish sanoati ham rivojlanib borayotganini e’tirof etish joiz. Qisqa davrda ushbu yo‘nalishda 458,6 million dollarlik 535 ta

loyiha bajarildi. Ya’ni shu tarmoqning o‘zida yiliga yuzdan ziyod loyiha amalga oshirildi.

Bundan tashqari, Navoiy viloyatining xomashyo zaxirasidan foydalangan holda joriy yilda Investitsiya dasturi doirasida 171,1 million dollar qiymatidagi 52 ta loyiha bajariladi.

Navoiy shahridagi erkin iqtisodiy zonada faoliyat yuritayotgan “Zarafshon golden group” korxonasi bino va ko‘p qavatli turarjoy uchun temirbeton va gazobeton mahsulotlari ishlab chiqarishda yetakchi tadbirkorlik subyekti hisoblanadi. Mazkur ko‘p tarmoqli tadbirkorlik subyektiga “Gazobeton va temirbeton mahsulotlari ishlab chiqarish” loyihasini amalga oshirish uchun investitsiya majburiyatlarini bajarish shartlari bilan jami 5,5 gektar yer maydoni bino va inshootlari bilan nol qiymatda ajratib berilgandi. Ayni paytda korxonada temirbetonning 70 turi ishlab chiqarilayotgan bo‘lsa, gazobeton tayyorlash hajmi yiliga 150 ming kvadrat metrni tashkil etadi. Har ikki loyiha uchun Xitoy, Rossiya, Italiya, Ispaniya va Turkiyadan zamonaviy texnologiyalar olib kelingan. Natijada 500 dan ziyod kishining bandligi ta’minlandi.

Tadbirkorlik rivoji haqida so‘z borganda, tarmoqqa tatbiq etilayotgan yangiliklarni alohida aytib o‘tish joiz. Xususan, davlatimiz rahbarining tashabbusi — “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturi viloyatdagi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirish hamda ishlab chiqarishni samarali tashkil etishda qo‘shimcha imkoniyatlar bermoqda. Chunki dasturda ishtirok etadigan tadbirkorlarga soliq, bojxona to‘lovlarida imtiyozlar taqdim etilishi ularning ushbu tashabbusga qiziqishini oshirmoqda. Birgina Navoiy shahri “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan 2 ming 200 kishi hududda faoliyat yurituvchi korxonalarga biriktirilib, bandligini ta’minlash bo‘yicha amaliy ishlar boshlab yuborildi.

— Bugungi kunda Navoiy shahrida 6 mingdan ziyod tadbirkorlar faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, ushbu dastur amaliyotga kiritilganidan keyin 200 dan ortiq ishbilarmonlar murojaat qilishib, o‘z takliflarini bildirishdi, — deydi shahar hokimining birinchi o‘rinbosari O‘tkir Xaqberdiyev. — Ayni paytda Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi orqali ularning arizalari qabul qilinib, tegishli tartibda jarayonga kiritilmoqda. Bu dastur tadbirkorni ham, oddiy aholini ham qo‘llab-quvvatlashda muhim vosita bo‘ldi.

Haqiqatan, Navoiy shahrida “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturida ixtiyoriy ishtirok etish istagini bildirgan tadbirkorlar soni kun sayin ko‘paymoqda. Shu sababli, mas’ullar muntazam ravishda uning mazmun-mohiyatiga bag‘ishlangan targ‘ibot tadbirlarini tashkil etyapti.

Viloyatda tadbirkorlar qulay muhit, yaratilayotgan imkoniyatlar va berilayotgan imtiyozlardan samarali foydalanib, yurtimiz iqtisodi rivojiga munosib hissa qo‘shishga harakat qilmoqda. Muhimi, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va mavjud muammolarini hal etish davlat e’tiborida.

G‘olib ABDUSALOMOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

NUQTAYI NAZAR

RVA TIZIMI

ta’lim muammolariga yechim bo‘ladimi?

O‘tgan yili davlat test imtihonlaridan abituriyentlarning 51,2 foizi, aniqrog‘i, 550 mingi 56,7 ball ham to‘play olmagandi. Joriy yilda bu ko‘rsatkich 49,4 foizga tushdi. Ekspertlar ta’biri bilan aytganda, bunga ikki omil sabab bo‘lishi mumkin: birinchisi, testlarning natijaga yo‘naltirilmagani, ikkinchisi, ta’lim tizimi mazmunining bu testlarga bog‘lanmagani. Har ikki versiyada ham tadqiqotchilar va baholovchilar natijani xalqaro tajriba mezonlariga tayanib tadqiq etishi, muntazam monitoring qilishi, ochiq mediada e’lon qilib borishi orqali holatni o‘nglash mumkin. Buning uchun soha vakillari autsorsing qilinishi maqsadga muvofiq. Chunki chet ellik mutaxassislar yoki xalqaro tashkilotlar xalqimiz tili va madaniyatini, qayerda qanday tadqiqot o‘tkazish mumkinligini har doim ham tushunavermaydi.

Feruza RASHIDOVA,
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Professional ta’limni rivojlantirish instituti professori

Masalan, milliy tashkilotlardan ba’zilarining ekspertlari ta’lim menejmenti va o‘qitishda sifat masalalarini xalqaro darajada tadqiq qiladi va bu borada ancha ishlarni yo‘lga qo‘ygan. Har bir o‘quv muassasasi menejmenti keltirilgan indikatorlarni taxminan o‘zi uchun ham belgilab olishi va ichki tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yib borishi maqsadga muvofiq.

Boshqaruv tizimida chet tillarni o‘rganishni joriy etish va ta’limda xalqaro ISO standarti menejmentini tatbiq qilib borish, barcha o‘qituvchilarning o‘zbek va chet tillarni puxta bilishiga intilishini qo‘llab-quvvatlash, professional darajada takomillashishi uchun turli uyushmalar bilan hamkorlik o‘rnatish ta’limdagi sifatni takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Bilim va malakalarni baholash agentligi (sobiq DTM) natijalari bo‘yicha fikrni davom ettirsak. Bu yo‘nalishda xalqaro talablar doirasida ishlash o‘ta muhim. 2023-yilda eng yomon ko‘rsatkich Sirdaryo viloyatida (54,9 foiz), nisbatan yaxshiroq natija esa xuddi o‘tgan yildagidek Toshkent shahrida (40,8 foiz) qayd etilgan. Sakkiz hududda abituriyentlarning 50 foizdan ko‘prog‘i 56,7 balldan past ball olgan. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: faqat shu raqamlarga qarab ish tutish bizni eng asosiy tadqiqotlardan chalg‘itib qo‘ymayaptimi? Nega masalaning sabablari o‘rganilmay, qayta-qayta o‘sha testlardan foydalanilmoqda?

Ta’limdagi sifat pasayib ketayotganining asosiy sabablardan biri ham shunda, deb bilamiz. Test tizimi “yod olingan bilimni baholash”, xolos. Bugun O‘zbekistonda qabul qilinayotgan xalqaro testlar tizimining birortasida bilim alohida baholanmay, faqat ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan kompetensiya baholanadi. U bugun xalqaro tizimdan chiqarib tashlangan. Gap shu haqda ketarkan, haqli savollar paydo bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston mehnat bozorida diplomli mutaxassislar ko‘p, lekin ularning necha foizi mehnat bozorida layoqatli inson kapitali sifatida tan olingan? Davlatning 3 yoshdan 18 yoshgacha ijtimoiy himoya qilgani badalini, aniqrog‘i, majburiy ta’lim doirasida fuqarolar va tadbirkorlarning soliqlaridan shakllangan ijtimoiy xarajatni bunday kadrlar qachon qoplaydi? Iqtisodiy legitimliligi yuqori davlatlarda bunday kadrlar pensiya yoshiga yetguniga qadar davlat sarflagan xarajatni 3-4 barobar qilib qaytarar ekan. Bizdagi kadrlar-chi?

Buning yechimini yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunimizdan topish mumkin. Unda “Hayot davomida ta’lim” konsepsiyasi ilgari surilgan. Aynan shu yo‘l bilan qisqa muddatda barcha soha egalarining malakasini yaxlit tizimga tushirib olishimiz imkoni mavjud. Buning uchun davlat tashkilotlari yurtimizdagi ekspertlar jamoasiga (davlat tashkilotlariga emas) buyurtma berishi va bir guruh olimlar bu muammoga konstruktiv bosqichma-bosqich yechim berishi mumkin. Buning uchun zarur bo‘lsagina chet eldan kelgan xalqaro mutaxassislarni jalb etsa bo‘ladi. Yo‘qsa, bu masalani aniq xalqaro reglament asosida faqat O‘zbekistondagi ta’lim sohasi bo‘yicha mustaqil ekspertlar xolisona hal etishi mumkin. Buning nomi shartli ravishda RVA deb nomlanadi.

> **YURTIMIZDA BIRINCHI MARTA DUAL TA’LIM TIZIMI JORIY ETILMOQDA. USHBU LOYIHALAR INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH UCHUN AJOYIB INVESTITSIYA. LEKIN RVA TIZIMI JORIY ETILMAGANI UCHUN TA’LIM BOSHQARUVIDAGI O‘ZGARISHLAR ISO STANDARTIGA MOSLASHTIRILMASA, KUTILGAN SAMARAGA ERISHISH MUSHKUL. ZERO, BU SOHADA MILLIY EKSPERTLAR QILISHI MUMKIN BO‘LGAN ISHLAR KO‘P.**

RVA (ingliz tilidan olingan so‘zlar: recognition — tan olinish; validation — yaroqliligini ta’minlash; accrediation — akkreditatsiyadan o‘tkazish) tizimini joriy etish hisobiga yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning amaldagi ijrosini ko‘rish imkoniyati kengayadi.

Natija ko‘rsata olmayotgan, davlat hisobiga “kun ko‘rayotgan” institutlar faoliyatini to‘xtatib, to‘liq autsorsingga berish maqsadga muvofiq. Natijada pedagoglar orasida raqobat paydo bo‘ladi. Ular muntazam malaka oshiradi. Malaka oshirmoqchi bo‘lganlar esa “majburiy-ixtiyoriy” malaka oshirishdan, ortiqcha qog‘ozbozlikdan ozod bo‘lib, chin ma’noda tajriba oshirish uchun turli konferensiya va seminarlar, kurslarga qatnay boshlaydi.

RVA mexanizmi mamlakatimizda qisman bo‘lsa-da, qabul qilingan. Uning xalqaro me’yorlarga to‘g‘ri kelmaydigan jihati shuki, tarmoq kengashlari to‘liq davlat organlari orqali boshqariladi. Natijada qilinishi kerak bo‘lgan ish ham kimdir buyursagina bajariladi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda formal va noformal ta’lim turiga bir xil huquq berilgan. Lekin bu amalda ishlashi uchun RVA tizimiga mustaqil (xalqaro hamjamiyat oldida javobgarlikni zimmasiga oladigan) olimlar guruhi shakllantirilib, tajriba-sinovdan o‘tkazilishi, xalqaro hamjamiyat tomonidan tasdiqlanishi, so‘ng mamlakatimizda joriy etilishi korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi. Mazkur tizim haqida ayniqsa, ish beruvchilar yaxshi biladi.

Har bir malaka darajasi yoshlar uchun professional jihatdan bir pog‘ona o‘sishni anglatadi. Yoshlar o‘z vaqtida oladigan ta’limni malaka darajasiga bog‘lash uchun rivojlangan davlatlarda tizimli mexanizm amaliyotda qo‘llanyapti. Maktablarda kompetensiya (oxir-oqibat malaka darajasini shakllantirish)ga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi joriy etilgan. Har bir o‘quv muassasasida ishlaydigan xodim va pedagoglar manfaatdor tomonlar — ish beruvchilar, ota-onalar, psixologlar, pedagoglar ta’lim oluvchilarda malaka darajasini shakllantirishga harakat qiladi. Huquqiy-me’yoriy hujjatlar ham shunga moslashtirilgan. Ya’ni pedagog, menejer va ta’lim oluvchilarning huquqi uyg‘unlashtirilgan va natijaga yo‘naltirilgan.

RVA ta’limning barcha shakllarini tan olish, eng katta ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun taklif qilingan ko‘plab yechimlardan biridir. Jumladan, kambag‘allikni qisqartirish, iqtisodiy rivojlanish, ish bilan bandlik ko‘rsatkichini oshirish, ijtimoiy inklyuzivlik va hamjihatlik, shaxsiy va kasbiy rivojlanish hamda jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bundan farqli o‘laroq, RVA barqaror rivojlanish va umrbod ta’lim olish uchun kengroq va umumiy tushunchalarini qamrab olgan. Bunday istiqbolli harakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli yo‘nalish va maqsadlarini birlashtirish potensialini mujassamlashtirgan integratsiyalashgan yondashuvni nazarda tutadi. Shuningdek, o‘zini-o‘zi hurmat qilish va mas’uliyatni his etish, birdamlik, muloqot va izlanish qadriyatlariga asoslanadi. Bir qator mamlakatlarning empirik dalillaridan foydalangan holda, RVA tizimining davlatlar rivojlanishiga qo‘shgan hissasini ko‘rib chiqish mumkin.

U muqobil ta’limning to‘liq ahamiyatini aks ettiruvchi diversifikatsiyalangan o‘qitish tizimini yaratishga olib keladi. Ko‘p davlatlarda ta’limning muhim qismi sifatida qabul qilinadi. Barcha o‘quvchilar uchun teng huquq va adolatli imkoniyatlarni ta’minlash maqsadida qo‘llanadi. O‘qitish tizimini isloh qilish, jarayondan chetda qolgan odamlarning rasmiy ta’limdan tashqarida olgan bilim va ko‘nikmasini yanada rivojlantirish, rasmiy malakaga erishishini ta’minlash uchun rag‘batlantirish vositasi vazifasini o‘taydi.

Ba’zi davlatlarda RVA xalqaro malaka talablariga tenglashtirilgan milliy malaka sertifikati uchun ishlatiladi. Ba’zi mamlakatlarda oliy ta’lim muassasalari tanqisligi tufayli noan’anaviy ta’lim usullarini tan olishga majbur bo‘linmoqda. U yerda RVA ish bilan band bo‘lganlar tomonidan akademik va kasbiy rivojlanish uchun ta’limning keyingi bosqichiga o‘tish yoki chet elda ishlash huquqini qo‘lga kiritishda muhim ahamiyatga ega.

Xo‘sh, bu borada mamlakatimizda nima ishlar qilinmoqda? Yevropa Ittifoqi, UNECKO, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati, Shveytsariya hukumati, Osiyo va Yevropa taraqqiyot banklari ko‘plab loyihalari bilan xalqaro malakani davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda joriy qilish uchun professional ta’lim pedagoglari va rahbarlarining malakasini oshirmoqda.

Yurtimizda birinchi marta dual ta’lim tizimi joriy etilmoqda. Ushbu loyihalar inson kapitalini rivojlantirish uchun ajoyib investitsiya. Lekin RVA tizimi joriy etilmagani uchun ta’lim boshqaruvidagi o‘zgarishlar ISO standartiga moslashtirilmasa, kutilgan samaraga erishish mushkul. Zero, bu sohada milliy ekspertlar qilishi mumkin bo‘lgan ishlar ko‘p.

GENDER TENGLIK

Ayol-qizlarning YANGI G‘OYALAR LABORATORIYASI

mavjud to‘siq va stereotiplarni yengishni ko‘zda tutadi

Nazokat KARIMOVA,
Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Dunyo ilm-fanida gender tengsizlik kuchayib borayotganiga guvoh bo‘lyapmiz. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish uchun muayyan qadamlar qo‘yilgan bo‘lsa-da, ilm-fanda ayol-qizlarning kam ishtiroki bugunning muammosi bo‘lib qolmoqda. Bunga yechim sifatida maxsus ilmiy oromgohlar tashkil etish orqali ayol-qizlarning ta’limi va karyerasi uchun keng yo‘l ochish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu borada O‘zbekistonda ilk marta ayol-qizlar uchun ilm-fan oromgohi tashkil etildi. Unda yurtimiz bo‘ylab saralangan eng iqtidorli, ilmga chanqoq va kreativ ayol-qizlar jamlandi.

Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida tashkil etilgan oromgoh loyihasi doirasida xotin-qizlarning ilmiy faoliyati keng targ‘ib etildi. Ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanayotgan opa-singillarimizga tajribali olim va mutaxassislardan nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, o‘zaro tajriba almashish uchun qulay imkoniyat taqdim etildi.

Dastur asosida taqdim etilgan bir-biridan manfaatli treninglarda ishtirokchilar maxsus libosda qatnashdi. Bu ilm-fanda jon kuydirayotgan yosh olimalarning umumiy qiyofasini yaxlit oila a’zolari sifatida gavdalantirdi. Tadbir ishtirokchilarga tajriba almashish, yangi ko‘nikmalarni o‘rganish va ilmiy salohiyatini rivojlantirish uchun platforma vazifasini o‘tadi.

— Ayol-qizlar uchun ilm-fan oromgohi sohada gender tenglikni targ‘ib qilish bilan birga gender qarama-qarshiliksiz ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanish, xalal beruvchi stereotiplarni yo‘q qilish va ilm-fanda ayol-qizlarning rolini oshirishga hissa qo‘shadi, — deydi loyiha ishtirokchisi Ra’no Aliqulova. — Bu yerda bilim va tajribamni sinovdan o‘tkazdim. Ilm-fan oromgohi loyihasi o‘zim tanlagan va boshlagan ilmiy izlanishlarim uchun katta olimalar bilan birga ishlashimda mustahkam zanjir bo‘ldi.

Ilm-fan oromgohida ayol-qizlar noyob g‘oyalari va yondashuvlari bilan o‘rtoqlashdi. Bu esa fikrlar xilma-xilligi va innovatsion yechimlarni rag‘batlantirdi.

— Oromgoh loyihasi yosh ayol-qizlarning ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish, ularni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, iqtidorli talaba qizlarni izlab topish, rag‘batlantirish, ilmiy tadqiqotlarga qiziqishini oshirishni ko‘zda tutadi, — deydi Yoshlar ishlari agentligi direktori o‘rinbosari Dilnoza Kattaxonova. — Shuningdek, yosh olimalar hamda yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlar o‘rtasida tizimli uchrashuvlar hamda ilmiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ilmiy va loyihalashtirish faoliyati bilan shug‘ullanishga jalb qilish, mantiqiy va tanqidiy tafakkurni singdirish, jahon ta’lim manbalaridan, ilg‘or ilmiy adabiyotlar elektron kataloglari, ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatini kengaytirish kabi maqsadlar ko‘zlangan.

Jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan taniqli shaxslar o‘tkazgan seminar-treninglar oromgohning 100 ga yaqin ishtirokchisida ilmiy tadqiqotning ahamiyatli jihatlarini tushunishga xizmat qildi. Ularda ilm-fanga chinakam qiziqish oshishi va tanlagan sohasi bo‘yicha keyingi ta’limni davom ettirishga undashi, ilmiy qobiliyatiga ishonchni orttirib, qiyinchiliklarni chidam bilan yengish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

— Muttasil rivojlanayotgan ilm-fan va texnologiyalar landshaftini kezar ekanmiz, kelajak ilmini shakllantirishda ayol-qizlar roli tobora dolzarblik kasb etmoqda, — deydi tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Zebiniso Adhamova. — Ayol-qizlar uchun ilm-fan oromgohlari hali foydalanilmagan iste’dodning o‘zgaruvchan potensialini ochish, taraqqiyot yo‘liga g‘ov bo‘layotgan tizimli to‘siqlarni hal qilish uchun kalit vazifasini bajaradi.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi va yangi texnologik rivojlanishga o‘tish jarayoni xalqaro tovar va moliya bozorlarida, raqamli texnologiyalarni joriy etish sohasi va aholining o‘sib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish usullarida raqobatning tobora kuchayishiga olib kelmoqda. Ushbu masalalarning asosiy yechimi ilm-fan va innovatsiyalar sohasida yetakchi mamlakatlar qatoridan o‘rin olishdir. Shu bois, rivojlanayotgan aksar mamlakatlar raqobatbardoshlikni oshirish va mustahkamlash bo‘yicha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni va global marketingni faol o‘zlashtirish, ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy maktablarini tashkil etish, tajribali va malakali mutaxassislarni jalb etish, innovatsion salohiyatga ega istiqbolli startaplarni qo‘llab-quvvatlash, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning moliyaviy va institutsional asoslarini yaratish uchun davlat imtiyozlaridan maqsadli foydalanish kabi choralarni ko‘rmoqda. Bu jarayonda ayol-qizlarning o‘rni va ishtirokini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

— Bugungi globallashuv davrida xotin-qizlarning imkoniyatini kengaytirish, gender

tenglikni ta’minlash dolzarb masalaga aylandi, — deydi loyiha ishtirokchisi Gulhayo Ravshanova. — Buning muhim jihatlaridan biri ayol-qizlarning ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash bilan bog‘liq. Ularning bilim olishi bir necha sababga ko‘ra juda muhim. Jumladan, imkoniyatlarni kengaytiradi, ongli ravishda tanlov qilish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkonini beradi. Qolaversa, gender me’yorlari va tengsizliklariga qarshi kurashish, orzularini amalga oshirish va o‘zgarishlar ishtirokchisi bo‘lishga ko‘maklashadi.

O‘qimishli ayol-qizlar ovqatlanish, gigiyena, reproduktiv salomatlik va kasalliklarning oldini olish bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lib, jamiyatning umumiy turmush farovonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, ta’lim orqali kambag‘allikni yengishda boshqalar qatori teng ishtirok etib, hissa qo‘shadi. Ayol-qizlar zarur bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lsa, yaxshi ish topib, ko‘proq maosh oladi va oilasining iqtisodiy farovonligiga hissa qo‘shadi. Bu orqali jamiyatning yuksalishiga yordam beradi.

Ilm-fan oromgohida tadqiqotchilik bilan izchil shug‘ullanayotgan ayol-qizlar qatori bo‘lg‘usi olimalarning ilmiy izlanishga qiziqishi va intilishi qo‘llab-quvvatlandi. Keyingi faoliyatida ilm-fan bilan kengroq shug‘ullanishi, ilmiy manbalardan foydalanishda ahamiyat beriladigan jihatlar, ilmiy samaradorlikka erishish, kasbda, ilm-fanda va eng asosiysi, oilada muvaffaqiyatli ayol-qizlar bo‘lishi uchun zamin hozirlandi. Uchrashuvlar, ilmiy hamjamiyat bilan qimmatli o‘zaro aloqalar juda katta ahamiyatga ega bo‘lishi, bu kabi ilm-fan oromgohlari yosh tadqiqotlar safini kengaytirish va olima ayollar ko‘magida ustoz-shogird an’analarini rivojlantirishda beqiyos o‘rin tutishi e’tirof etildi. Olimalarning ilmiy faoliyatiga oid yutuqlarini ommalashtirish, innovatsion g‘oyalarini rag‘batlantirish, ilm-fan, ilmiy faoliyat sohasidagi milliy va xalqaro tanlovlarda, xalqaro reytinglarda ishtirokini targ‘ib qilish va qo‘llab-quvvatlash faol davom ettirilishi ta’kidlandi.

MILLAT FIDOYILARI

"DOKTORLIK DISSERTATSIYAMNING YARMI SIZNIKI"

Mansurxon TOIROV,
professor

Yurtdoshlarimiz uchun og'ir ayriliq kunida Erkin Vohidovning xalqimiz uchun nechog'liq ardoqli ekani namoyon bo'ldi. Hassakashlar qatorida ko'plab chet ellik mehmonlar ham bor edi. Shoir xotirasiga berilgan ehson dasturxoniga ham ko'p odam keldi. Go'yo azim daryo mavjlanib oqqandek bo'ldi...
Buyuklik xalqning qalbiga yo'l topa bilishdadir. Millatimiz qalbidan joy olgan buyuk ajdodlarimiz nomini asrlar, ming yilliklar shitobi o'chira olmadi. O'chira olmaydi ham. Haqiqiy shoir yuragi xalq yuragi bilan hamohang uradi. Quyosh nuri so'nmaganidek buyuk shoirlardan meros qolgan durdona asarlar, misralar ham ming yillar o'tsa-da, zavol topmaydi. Avlodlar qalbida nur taratishdan to'xtamaydi.

Bunday buyuk iste'dod egalari boy ijodiy merosining qadr-qimmati adabiyotimizning yuksak namunalaridan joy olgani bilangina cheklanib qolmaydi. Aytish mumkinki, ularning mangulikka daxldor asarlari xalqimiz ma'naviyatini, tafakkurini boyitishga juda katta ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatmoqda.

Erkin Vohidov shaxsi va ijodi nafaqat yurtimizda, boshqa respublikalarda ham mashhur bo'lgan, kitoblari qator tillarga tarjima qilingan, adabiy, ilmiy davralarda katta e'tirof qozongan edi...

1970-yili aspiranturada o'qib yurgan kezlarim Navro'z bayrami bahonasida turli sohalar bo'yicha Leningradda ilm qilib yurgan o'zbekistonlik aspirantlar biz yashab turgan yotoqxonaga to'plandi. Yotoqxonamizning keng-mo'l oshxonasida bayram dasturxoni yozilib, atrofidan yuz chog'li odam o'rin oldi. So'zga chiqqanlar ko'p bo'ldi. Yodimda qolgani o'shanda men va o'sha izdihomdagi vatandoshlarimizning aksariyati birinchi marta "O'zbegim" she'rini tinglagan edik. Nazarimda, aynan shu kuni davr mafkurasining qalbimizdan ona Vatan tuyg'usi, buyuk ajdodlarimiz yodi, din-u diyonat, urf-odatlarimiz, tariximizni o'chirishga urinishlari barbod bo'lishidagi boshlang'ich qadam qo'yilgandi. O'shanda ilk bor Erkin Vohidov nomi qalbim to'riga kirib bordi. "O'zbegim" she'rini hali yosh aktyor, hozir san'atimiz darg'asi maqomiga erishgan O'zbekiston xalq artisti Yodgor Sa'diyev zo'r mahorat bilan o'qib bergandi...

Fan nomzodi bo'lganimdan so'ng ko'p o'tmay, doktorlik dissertatsiyasini boshlash harakatiga tushdim. Barcha rasmiyatchiliklarni tugatgach, ilmiy ishimni amalga oshirish uchun belgilangan laboratoriyaga bordim. Kirdim-u, dilni g'ash qiluvchi holat ustidan chiqib qoldim. Men bilan qadrdon bo'lib qolgan yosh olim Yuriy Rudning doktorlik dissertatsiyasi himoyasi barbod bo'libdi... Buni eshitgach, ishga jon-jahdim bilan kirishib ketdim. Yuriy ham men bilan yupanib, biroz bo'lsa-da, tashvishini esdan chiqargandek bo'lib yurdi. Bir yilcha vaqt o'tgach, dissertatsiyasini yoqlash uchun qaytadan institut direktori, akademik Jores Alferovning ruxsatini olishga harakat qila boshladi. Lekin bir necha oy mobaynida biror marotaba Jores Alferov bilan ikki og'iz gaplashishga ham muyassar bo'la olmadi.

Rudning Alferov bilan uchrashishga yuragi dov bermayotgan bo'lsa kerak, degan xulosaga kelib, o'zimning dissertatsiyam xususida jiddiy bosh qotira boshladim. Ilmiy ishni mehnat, aql-u farosat bilan qilarman, dissertatsiyani ham yozarman, lekin Ruddek mashhur olim yaqinlasha olmayotgan Jores Alferov, Vladimir Tuchkevich, Yuriy Gulyayev kabi akademiklar bilan qanday uchrasha olaman, ularga ilmiy ishimning mohiyatini qanday yetkazaman, eng asosiysi, dissertatsiyamni yoqlash uchun ularning ruxsatini qanday olaman, degan savol va xavotir menga hech tinchlik bermay qo'ydi.

Toshkentga qisqa muddatli ta'tilga kelgan kezlarim kitob do'konlaridan birida Erkin Vohidovning Moskvadagi nashriyotlardan biri tomonidan 1986-yilda juda bejirim qilib chop etilgan rus tilidagi she'riy to'plamiga ko'zim tushib qoldi. Hech bir ikkilanmay, ushbu kitobdan yettitasini sotib oldim-da, to'g'ri O'zbekiston Fanlar akademiyasiga bordim. U paytlarda akademik Po'lat Habibullayev akademiya prezidenti edi.

Po'lat akaning yordamchisi Liliya Mansurovna degan dilbar, xushmuomala ayol meni yaxshi tanir edi. Shu bois, hech bir qiyinchiliksiz akademiya rahbarining qabuliga kirib bordim. Po'lat aka meni "Xo'sh, nima gap?" deya kutib oldi. Men ilmiy ishim bilan bog'liq vaziyatni qisqa, lo'nda qilib tushuntirgach, qo'limdagi she'riy to'plamlardan uch-to'rttasini unga uzatdim. "Shu kitoblarga Alferov, Tuchkevich va Gulyayev uchun dastxat yozib bersangiz?", deya iltimos qildim. Po'lat aka menga yalt etib bir qaradi-da, kitoblarni olib, indamasdan ikki akademik nomiga yaxshi tilaklar yozib, dastxat qo'yib berdi. Nimanidir o'yladi, shekilli: "Gulyayevga keyin yozib berarman", deb qo'ydi...

To'plamlar Alferov va Tuchkevichning qo'liga tekkach, to'siqlarni yengib o'tishim osonlashdi. Har ikki akademikni ilmiy ishimning mazmuni bilan tanishtirishimga imkoniyat paydo bo'ldi. Hatto Rudga tegishli ilmiy ishning ijobiy tomonlarini ko'rsatganimdan so'ng sherigim ham tez orada doktorlik dissertatsiyasini yoqlab oldi. Men ishlagan laboratoriyaga ishonch ortdi, obro'si ko'tarildi. Dissertatsiyam himoyasidan so'ng yana bir necha olimning fan doktori bo'lishi uchun keng yo'l ochildi. Ulardan biri — professor Gennadiy Medvedkin keyinchalik AQSH fuqarosi bo'lgach, meni okeanortida o'tkazilgan ilmiy konferensiyaga taklif etdi.

Xizmat vazifam taqozosiga ko'ra, hukumat telefoni biriktirilgan kezlari Erkin Vohidov bilan tez-tez u-bu masalalarni maslahatlashib olardik. Hatto birgalikda hasharlarda ishtirok etar, ko'chatlar ekardik. Atoqli shoir biz o'tkazgan tadbirlarda bir necha bor ishtirok etib, purma'no ma'ruzalar qilgan. Shunday uchrashuvlarimizdan birida Erkin Vohidov bilan bir piyola choy ustida suhbatlashar ekanmiz, yuqorida bayon qilingan voqealarni u kishiga aytib berdim. "Doktorlik dissertatsiyamning yarmi sizniki, Erkin aka", deganimda buyuk shoirimizning nurli chehrasida mayin tabassum zohir bo'ldi. Shu-shu adibning o'sha paytdagi mayin jilmaygan holati xotiramda muhrlanib qoldi...

MULOHAZA

"Beozor" jumla mashaqqati

"Bitta erkak o'qisa, bitta oila ma'rifatli bo'ladi. Bitta ayol o'qisa, millat ma'rifatli bo'ladi"

Biz uni qay darajada tushunamiz, qanchalik ko'lamda tasavvur eta olamiz? Eng muhimi, uni oilamizda, farzandlarimiz misolida qanchalik tatbiq eta olyapmiz?
Keling, bunga amaliy jihatdan nazar tashlab, fikrlashaylik.

Qiz bolani o'qitish kerakmi yoki yo'qmi, degan savolga bugun ko'pchilik "ha" deb javob berishini va bunga amaliy jihatdan astoydil harakat qilishini, samarasini ko'rib chin dildan quvonishini istaymiz. Lekin "Qiz bolani o'qitish shart emas, u turmushga chiqib oilani eplasa, bola tug'sa, ro'zg'or yumushlari bilan band bo'lsa bo'ldi," deydiganlar oz deb o'ylaysizmi? Buning uchun atrofga tuzukroq razm solishning o'zi yetarli.

"Ro'zg'or yumushlari" bir qaraganda silliqqina, beozor, kichkina jumla. Biroq shu "beozor" jumlaning zamiridagi mashaqqatli jismoniy mehnat ko'lamini, ruhiy zalvarini har doim ham his etavermaymiz. Har kuni necha bor ovqat qilish, kir yuvish va uni dazmollash, bichish-tikish, uyni tozalash, hovli supurish, sigir sog'ish va hokazo... Bu adoqsiz ro'yxatdagi yumushlar ayollar zimmasida. Ularga bolalar parvarishi, tarbiyasi, darsini nazorat qilish kabi vazifalar ulanib ketganini ham bilamiz. Va beixtiyor esdan chiqqan, lekin ayol zimmasiga "yuklatilgan" vazifalar yana qatorlashib kelaveradi: uydagi keksa yoki bolalar betob bo'lib qolsa ham kun-u tun parvona bo'lish, milliy qadriyatlarimiz safidan o'rin olgan "mehmon kutish", idish-tovoq yuvish, erining hafta o'tmay yana kelgan oshnalari, qarindoshlarini har qanday sharoitda kulib qabul qilish... Qaynona-qaynotaga e'tibor va muomala esa birinchi galdagi alohida va o'ta nozik masala, albatta.

Agar shularni eplolmasa yoki noroziligi biror marta gap-so'zida, hatto tund qiyofasi orqali aks etsa, ayolga nisbatan dakki-dashnom, ta'rif-u tavsiya o'zgacha tus oladi odatda: tarbiya ko'rmagan, sabrsiz, noshud...

"Bolalarning darslarni o'zlashtirishi past bo'lishiga ayol aybdor, chunki erkak ko'chaning odami. Ro'zg'orini tebrataman deb kechgacha ishlaydi, ko'chada yuradi. Uning farzand tarbiyasiga vaqti bo'lmaydi", deguvchilar yo'q deb o'ylaysizmi? Turmush, oila borasidagi bunday tasavvur va fikrni to'g'ri deb biladigan "ahli donish"lar ayolining aql-u idrokiga ham bir umr shubha bilan qaraydi. Shu sabab qizidagi qobiliyatni, fazilatlarni anglamaydi, qadrlamaydi, uning maktabidagi o'qishiga ham beparvo. Aksincha, taqdirning bu "adolatsizligi" uchun qiz tuqqan ayolini ayblaydi. Ayni paytda uning o'g'liga ajratadigan e'tiborning esa chek-chegarasi yo'q. Uning uchun mablag' yig'adi, dang'illama uylar quradi, boy-badavlat, katta ishda ishlaydiganlar bilan quda-anda bo'lishga harakat qiladi. O'g'lining o'qishiga repetitor yollab, pul sarflasa, tez orada oliy o'quv yurtiga kirib ketishiga ishonadi ham. Butun oila, farzandlar kelajagi uchun qayg'urish shundangina iborat xolos, deb biladi.

Qizi uning uchun birovning hasmi yoki palaxmon toshi, bir kuni uyidagi bor buyumlarni o'zga uyga olib ketuvchi... Ona qizi uchun sarpo yig'ish va kun kelib uni uzatish haqida qayg'urib kun o'tkazadi. Chunki onaning o'zi ham qiz bolaning borligi ko'tara tashvish deb tushunuvchi oilada katta bo'lgan. O'sha dunyoqarash bilan yashayapti.

Onaning yodida: qizi chaqaloq payti kechasi bilan isitmalab chiqdi. Eri "O'chir anavingning ovozini, beshik-peshigi bilan hozir ko'chaga uloqtiraman", dedi. Ona xasta norasidani bag'riga mahkam bosib, hovlidagi so'rida tong ottirdi. Ertalab uch yashar o'g'lining ham isitmasi ko'tarilib, tobi qochdi. Eri zudlik bilan qishloq shifokorini uyga olib keldi. Vrach bolani yaxshilab tekshirib, isitma tushiradigan ukol qildi, kerakli dorilar ro'yxatini yozdi.

Shu payt beshikdagi chaqaloqning ingragan ovozi eshitildi.

— Beshikdagi bola ham kasalga o'xshaydi, uni ham ko'rib qo'yaman, — dedi shifokor qaynonasiga. — Har bir chaqaloqning salomatligini ko'rish vazifam, — deya issig'i baland qizaloqni qo'liga oldi va tezgina birinchi yordamni ko'rsatib, bolani shifoxonaga olib ketish kerak, degan xulosasini aytdi.

— Do'xtir, xotinim chaqalog'i bilan shifoxonaga ketsa, o'g'limning ahvoli nima bo'ladi? Iltimos, xotinim uyda, o'g'lim yonida bo'lsin. Har kuni sizni o'zim olib kelaman, o'shanda chaqaloqqa ham qararsiz. Umri bo'lsa, shifoxonasiz ham o'lmaydi, — degandi o'shanda eri.

Bu gapdan keyin qishloq shifokori har kuni ularning uyiga qatnab bolalarni davolagan. O'shanda ona qizining tashvishlarini bir o'zi ko'tardi.

Bu qaytar dunyoda inson xor etgan har bir narsaning to'lovini to'laydi. Qizidagi iqtidoriga e'tiborsizligi evaziga ota ortiqcha erkalatgan o'g'li uchun hayotda ko'p bora "tovon" to'ladi.

O'g'lini bir amallab oliy ma'lumotli qildi. Tanish-bilish bilan ishga joyladi. O'g'il esa bir umr bir joyda muqim ishlab ketgani yo'q. Bu orada qobiliyati qo'llab-quvvatlanmagan qiz ham ruhiy tushkunlik va moddiy qiyinchilik tufayli hayotda ko'p qiynaldi. Intilishdan, kurashdan to'xtadi. Onasi xavotirlanganidek qadriga yetmaydigan bir oilaga kelin bo'ldi. Tug'ilib kamolga yetgan oilasidayoq ortiqcha tashvish, oilamizga omadsizlik keltirgan bexosiyat degan, tamg'a peshonasiga urilgan qiz na kelin bo'lib tushgan oilasida izzat ko'rdi, na turmush o'rtog'idan vafo topdi.

Oiladagi o'g'il bolani deb qiz bolaning ruhi sindirildi, unga yetarli e'tibor berilmadi. Natijada oila ikki taraflama ham yutqazdi. Aslida, har qanday farzand va undagi iste'dod, avvalo, oilada o'z baho-sini olishi, qadrlanishi kerak.

Bu borada Abdurauf Fitrat shunday yozadi: "Odamning fe'l va harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhni tarbiyalash lozim. Bolalarni o'ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqlli qilib tarbiyalash uchun o'z qadr-qimmati, sha'nini hurmat qilish ruhini tarbiya qilmoqlikni, shu bilan birga, yon-atrofdagi odamlar bilan hisoblashishni o'rgatmoq kerak... Bolalarni shunday tarbiyalash lozimki, baxtga bo'lgan intilishlari hech qachon xazon bo'lmasin... Ota-ona bolaga mamnunlik va xursandchilik qilishni man etmasligi, balki axloqqa zid bo'lmagan ishlar bilan mamnun va xursand bo'lishini qo'llab-quvvatlashi kerak".

Hali o'zining oddiy insoniy burchini aniqlay olmagan ota-onadan qanday vatanparvar farzandlar kutamiz. Zamondan, o'zi yashayotgan Vatanda kechayotgan o'zgarishlardan voqif bo'lmagan, e'tiborsiz oilalar davrasida faqat mayda-chuyda gurunglar bo'larmikan, deya hayron bo'laman. Farzandlarimizning katta yoki kichik yutuqlari oila davrasida qo'llab-quvvatlanishi yoshlarda o'ziga nisbatan ishonch tuyg'usini shakllantiradi.

Oila — muqaddas qo'rg'on. Bu qo'rg'ondagi o'rinli rag'bat farzandlarimiz uchun juda katta mukofot kabi ahamiyatli. Bola har lahzada o'zini kimdir kuzatib, yaxshi ko'rib turganini, ishonayotganini, qo'llab-quvvatlanayotganini sezib turishi kerak. Uning nimjon tani uchun suv va yegulik qanchalik zarur bo'lsa, ongi va aql-idroki uchun ruhiy quvvat ham shunchalik zarur. Bu ruhiy quvvatning nomi mehr va e'tibor deb ataladi. Zurriyotlarimizdagi iste'dodlar loqaydligimiz va ilmsizligimiz tufayli ro'yobga chiqmay qolishiga yo'l qo'ya olmaymiz.

Nuroniylarimizda ulug' duo bor: dunyo turguncha turing!

Ha, inson avlodlari bardavom bo'lishini — farzandlar, nevara-chevaralar ko'rishini so'rab shunday tilak bildiradi. Ammo bu abadiylikka chang soluvchi illatlar ko'p: ilmsizlik, irodasizlik, ochko'zlik, axloqsizlik, dangasalik, o'g'rilik, e'tiqodsizlik, imonsizlik. Bunday halokatdan najot esa bilimdadir.

Davlatimiz rahbari bir chiqishida sayyo-ramizning ertangi kuni, farovonligi far-zandlarimizning qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liqligi, bizning asosiy vazifamiz — yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish ekanini ta'kidlab o'tgandi.

Ayolning hayotdagi vazifasi ham, o'rni ham nihoyatda katta. Unga e'tibor ham, ko'mak va hurmat ham shunga yarasha bo'lmog'i kerak. Axir oilada saranjom-sarishtalik, mehr-muhab-batga to'la muhit, oila a'zolari o'rtasida ko'ngilni shod etuvchi munosabat yaratguvchi ham ayol. Taraqqiyot jadallashgan bugungi zamonda esa uning zimmasiga oila va farzandlari, turmush o'rtog'iga muntazam e'tibor bilan bir qatorda el-yurt ravnaqi yo'lida ziyoli shaxs sifatida ishtirok etishdek vazifa yuklangan. Shu bois, biz ham o'g'il-qizlarimiz ta'lim-tarbiyasi, baxtli hayot kechirishlari uchun mas'uliyatimizni bir lahza unutmaylik. Buning uchun jon tomirlarimiz suv ichib turgan manbayi iymon-u e'tiqod, ma'naviyat daryosi bo'lsin. Dunyo turguncha turing!

Zulfiya MARDONOVA,
shoira

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalari tahririyati" DUK
MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-846.
43690 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Feruza Jo'rayeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05